

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI**

|                                                                                                                            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>«TASDIQLAYMAN»</b><br>Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti<br>dekani, dotsent _____ F. Axrorov<br>« ____ » _____ 2014 yil |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**“Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi”  
kafedrası**

**5610100 - Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish ta’lim  
yo‘nalishi bo‘yicha**

**YUSUFOV JALOLIDDINNING**  
**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “Tuxum beruvchi tovuqlarning tuxumdorligini oshirishda  
zoogigienik talablarga rioya qilishning iqtisodiy  
samaradorligi”**

**Bajardi: Fermer xo‘jaligini  
boshqarish va yuritish ta’lim  
yo‘nalishi 4 - bosqich 408 - guruh  
talabasi**

**Yusufov Jaloliddin**

**Ilmiy rahbar, katta o‘qituvchi  
Ilmiy maslahatchi, q.x.f. doktori**

**A.Chalabayev  
O. Murtazaev**

**Malakaviy ish muhokama qilindi  
va himoyaga ruxsat berildi**

**Kafedra mudiri, dotsent  
\_\_\_\_\_ B.Yaxyaev  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil.**

**SAMARQAND – 2014**



## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                     |           |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                                  | <b>4</b>  |
| <b>1. ADABIYOTLAR SHARHI .....</b>                                                                                                                                  | <b>11</b> |
| <b>2. QISHLOQ XO'JALIKLARIDA RESURSLARDAN FOYDALANISH<br/>HOLATI TAHLILI .....</b>                                                                                  | <b>20</b> |
| <b>3. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNING<br/>MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDA ZOOGIGIYENIK<br/>TADBIRLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING<br/>HOZIRGI HOLATI.....</b>  | <b>30</b> |
| 3.1. Samaradorlik tushunchasi, mezonlari, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.....                                                                | 30        |
| 3.2. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini oshirishda zoogigiyenik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligining hozirgi holati tahlili.....                | 33        |
| 3.3. Parrandalarni oziqlantirishda gigiyena talablari va ularning hozirgi holati.....                                                                               | 39        |
| 3.4. Inkubatsiya gigiyenasi va ularning hozirgi holati.....                                                                                                         | 45        |
| 3.5. Jo'jalarni o'stirish gigiyenasi va ularning hozirgi holati.....                                                                                                | 49        |
| <b>4. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNING<br/>MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDA ZOOGIGIYENIK<br/>TADBIRLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br/>IMKONIYATLARI.....</b> | <b>56</b> |
| 4.1. Parrandalarni saqlash usullarini takomillashtirish imkoniyatlari.....                                                                                          | 56        |
| 4.2. Tovularning tuxum mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari.....                                                                                                  | 64        |
| 4.3. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....                                                        | 69        |
| <b>5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK<br/>MASALALAR.....</b>                                                                                                | <b>75</b> |
| <b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>                                                                                                                                     | <b>79</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                                                      | <b>83</b> |

## K I R I S H

Chorvachilikning asosiy ajralmas tarmoqlaridan biri bu parrandachilikdir. Aynan bu soxadan respublikamiz axolisining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. Bunda aholi iste'molidagi parranda go'shti va tuxumning asosiy qismini beradigan parrandachilikning o'rni muhimdir.

Parrandachilik – mamlakat qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismidir. Parrandachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimotini ijobiy hal etilishiga bevosita ta'sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda parrandachilik sohalarini joylashtirilish va rivojlantirish zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalari uchun tuxum, parranda go'shti, pat, par va qo'shimcha mahsulotlar: g'oz jigari kabi mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi, parrandachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi.

Shuning uchun respublika hukumati mamlakatning parrandachilikni barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbik etish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish uchun mustaqillik yillarida barcha imkoniyatlar yaratib berildi. Chorvachilikni xususiylashtirish natijasida chorva hayvonlari egasini topdi, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'djaliklarda chorva bosh sonlari ko'payib, mahsulot yetishtirish keskin oshdi. Fermer xo'jaliklari uchun har shartli bosh molga 0,30-0,45 ga yer ajratib berilishi natijasida chorva hayvonlari uchun yetarli miqdorda turli xildagi ozuqalar yetishtirilib, mollarni to'laqiymatli oziqlantirish imkoniyatlari yaratildi. Chorva mahsulotlariga davlat

byudjetlari va xarid baholarini bekor qilishni chorvadorlarning moddiy manfaatdorligini oshirish imkonini berdi.

Respublika Prezidentining farmon va qarorlari, xukumat qarorlari bu borada dasturi-amal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu xujjatlarda chorvadorlar uchun barcha shart-sharoit va imtiyozlar o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Biz bugun 2013 yilning yakunlari haqida gapirganda avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mutanosiblikka erishgani, modernizasiya va diversifikasiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi - 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi - 14,8 foizga oshdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o'tgan yilning o'zida yurtimizda 26 mingdan ziyod kichik biznes subyekti ish boshladi, ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni yil oxiriga kelib 190 mingga yetdi. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga alohida to'xtalmoqchiman.

Avvalo, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman, 2013 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik - 6,4 foizga, chorvachilik - 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish

tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'ratgich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotganligi eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka - 3,1 marta, sabzovat - 3,2 barobar, uzum - 2 marta, go'sht va sut - 2,1 karra, tuxum - 3,4 barobar oshdi.

Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol uynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xujaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yunalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmokda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmokda.

Shuni mamnuniyat bilan e'tirof etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi o'zining Mustaqqillik yillari davomida xalq xo'jaligi barcha tarmoqlari bo'yicha ulkan yutuqlarga erishib, dunyo hamjamiyatini hayratda qoldirmoqda. Bunga isbot tariqasida 2010 yildagi moliyaviy inqirozini keltirish mumkin. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, moliyaviy inqiroz dunyo iqtisodiyotiga 9,4 trillion

AQSh dollari miqdorida zarar yetkazgan. Bu esa jahon mamlakatlari yalpi ichki mahsulotining 15 foizini tashkil qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jaxon moliyaviy inqirozi bizning Mamlakatimizni chetlab o’tgan. Bu masalaga Prezidentimizning “Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” nomli asarida batafsil to’xtalib o’tgan. Jumladan, asarda davlatimiz raxbari moliyaviy - iqtisodiy inqirozning O’zbekiston iqtisodiga ta’sirini chetlab o’tishga muvofiq bo’lgan omillar xususida shunday deydi: “O’zbekistonda qabul qilingan o’ziga xos islohat va modernizasiya modeli orqali biz o’z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo’yar ekanmiz, eng avvalo “shok terapiyasi” deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o’zini o’zi tartibga soladi, degan o’ta jo’n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik”.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiyotimizning asosiy tayanchi bo’lgan agrar sohani isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar sohada ko’lga kiritilayotgan yutuqlar ham yildan yilga ortmoqda.

Mamlakatimizda chorvachilik sohasini isloh qilish va uning ozuqa bazasini mustahkamlash borasida yuritilayotgan oqilona va barqaror siyosat natijasida chorva mollari bosh soni yildan – yilga ko’paymoqda, parrandachilikda sezilarli rivojlanish qayd qilinmoqda, asalarichilik va baliqchilik sohalarida ham salmoqli darajada yutuqlarga erishilmoqda.

Masalan, 2013 yilning 1 yanvarigacha bo’lgan statistik ma’lumotlarga ko’ra qoramollar bosh soni 2012 yilda 105,2 foizga, shu jumladan sigirlar bosh soni 101,5 foizga, qo’y va echkilar bosh soni 105,8 foizga, parrandalar bosh soni esa 111,1 foizga yetkazilgan. Shuningdek go’sht ishlab chiqarish tirik vaznda 7,0 foizga, jami 109,0 ming tonnaga, sut ishlab chiqarish 8,1 foizga jami 1544,7 ming tonnaga, tuxum ishlab chiqarish 12,5 foizga jami 432 ming donaga yetkazilib, baliq ovlash 52.1 foizga o’sgan. 2014 yil 1 yanvar xolati bo’yicha bu ko’rsatkichlar yanada yuqori darajada bo’lgan.

**Mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati.** Ko'p yillar mobaynida olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, hayvon organizimi uchun, ya'ni organizmda kechadigan fizologik, biokimyoviy va mikrobiologik jarayonlarning me'yorda bo'lishi hamda mo'l va sifatli mahsulot olish uchun birgina organik moddalar bilan ta'minlanish yetarlik darajada bo'lmasdan, ma'lum zoogigiyenik sharoitlarni yaratish ham zarur.

Tashqi muhit omillari parrandalar sog'ligi va mahsuldorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Parrandalar organizmiga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillari yetarli darajada rang-barang. Ulardan avvalo havo tarkibi va xossalarining ta'siri sezilarlidir. Havoning muhim tarkibiy qismlaridan kislorod hayvonlarga nafas olish uchun zarur. Nafas olishda kislorod qonga so'riladi va butun tana bo'ylab tarqaladi. Kislorodni yutarkan, hayvonlar nafas chiqarayotganda havo bilan birga karbonat angdrid gazi (3,4%) va suv bug'larini ajratib chiqaradi. Shu bilan bir qatorda hayvonlar ichak gazlari metan, vodorod sulfid va boshqalarni ajratadi. Ventilyasiya va kanalizasiya ishlamaganda, go'ng o'z vaqtida tozalanmasa ko'p miqdorda zararli gaz ammiak hosil bo'ladi, uning mavjudligini binodagi yoqimsiz hiddan bilish mumkin. Bundan tashqari, parrandaxonalar havosi oziqa tarqatish va to'shamalar to'shshda ham chang bilan ifloslanadi.

Shunday qilib, kanalizasiya va ventilyasiya noto'g'ri qurilganda, parrandalar zich parvarish qilinganda, ularni o'rab turgan havo tarkibi sof atmosfera havosidan keskin farq qiladi. Haddan tashqari namligi yuqori va zax binolarda turli yuqumsiz, yuqumli va invazion kasalliklar paydo bo'lishiga sharoit yaratiladi. Yosh jo'jalar zax binolarda kolibakterioz, paratif va boshqa yuqumli kasalliklar bilan kasallanadi. Havo harorati juda past yoki juda yuqori bo'lishi ham organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'ta past harorat shamollash kasalliklari paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Sovuq parrandaxonalarda oziqa ko'p sarf bo'ladi va tovuqlarning tuxum mahsuldorligi pasayadi.

Hayvon organizmiga ta'sir qiladigan tashqi muhit omillari orasida yorug'lik dastlabki o'rinlarning birini ishg'ol qiladi va faqat ko'rish a'zolariga ta'sir qilib qolmay, balki butun organizmga ham ta'sir ko'rsatadi. Yorug'lik ko'rish a'zolari

orqali ta'sir qilar ekan, bosh miya katta yarim sharlarigacha tarqalib boradigan qo'zg'alishga sabab bo'ladiki, bu organizmning fiziologik va ruhiy reaksiyalariga ta'sir ko'rsatadi. Organizmning umumiy tonusini o'zgartiradi hamda faol holatini quvvatlab turadi.

Qish paytlarida yorug'lik yetishmasligidan organizmda modda almashish buziladi, qisir qolish ko'payadi, mahsuldorlik va organizmni tabiiy chidamliligi pasayadi. Yorug'lik ayniqsa quyosh nurlari hayvonlar organizmiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yorug'lik yetishmaganda yosh hayvonlar sust rivojlanadi, katta hayvonlarda mahsuldorlik va jinsiy funksiyalar pasayadi. Parrandalar uchun binolar yoritilganlik darajasi haqida so'z yuritilganda oyna yuzasini pol maydoniga nisbatiga ko'ra baholash qabul qilingan. Yuqoridagilarni hisobga olib, parrandalarni yorug' binolarga joylashtirish maqsadga muvofikdir.

Chorvachilik binolaridagi tabiiy yorug'likni geometrik na svetotexnik usullar bilan aniqlanadi. Svetotexnik usulda yorug'lik lyuksmetr asbobi bilan o'lchanadi. Shuni esda saqlash kerakki, yorug'likdan to'g'ri foydalanilmasa, ayniqsa yozning issiq kunlarida foyda o'rniga zarar ko'rish mumkin. Masalan, quyosh, ko'z kasalligi, quyosh urish va boshqalar kelib chiqadi.

Ilmiy-tekshirish natijalari shuni ko'rsatadiki, chorvachilik binolarida qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarni zich saqlaganda va xavfli yuqumli kasalliklar tarqalgan vaqtda havo kiradigan va chiqadigan ventilyasiya yo'llariga filtrlar o'rnatish maqsadga muvofiq ekan. Karantin binolari, buzoqlar saqlanadigan profilaktoriya, bolali ona cho'chqalar va 30 kunlikgacha bo'lgan jo'jaxonalarga kiradigan havo yo'llariga filtrlarni ishlatish tavsiya etiladi. Molxonalar va fermalar havosi havzasini ifloslanmasligiga qarshi kurash choralarining asosiy omillari: veterinariya-sanitariya va zoogigiyenik qoidalariga qat'iy rioya qilish, jumladan go'ngni chiqarish, binolarni tozalash va dezinfektsiya qilish hamda parrandachilik korxonalarining atrofini obodonlashtirish katta ahamiyatga ega.

Issiq iqlim sharoitida parrandaxonalarda mu'tadil mikroiklim ko'rsatkichlarini saqlash tovuqlarning maxsuldorligi va tabiiy chidamlilik qobiliyatiga ta'sirini

Musinov Ya.X; Chalabayev A.J. (1995, 2005) o'z ilmiy izlanishlarida aniqlaganlar.

Mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarishdan asosiy maqsad - tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini oshirishda zoogigiyenik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va uni oshirishga doir taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

- fermer xo'jaliklarining resurslar salohiyatini o'rganish;
- tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini oshirishda zoogigiyenik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini nazariy jihatdan asoslash;
- tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini oshirishda zoogigiyenik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini hozirgi holatini tahlil etish;
- tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini oshirishda zoogigiyenik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

## 2. ADABIYOTLAR SHARHI

Istiqlol yillarida xalq xo'jaligining barcha jabhalarida chuqur iqtisodiy islohatlar o'tkazildi va bu jarayon bugungi kungacha daom etib, ishlab chiqarishni jaxon andozalari talabiga mos ravishda takomillashishi uchun asosiy omil xisoblanmoqda.

Majidov M.M., Rustamov E.X. (Oxalik Lomann parranda, 2011) bosh mutaxassislarini ta'kidlashicha "Lomann Tirsux" firmasida yaratilgan "Lomann Braun klassik", "Lomann Sendi" krossli tovuqlarni saqlanuvchanligi va galadagi tovuqlarning tuxumdorligini oshirish uchun birinchi navbatda saqlash sharoitini andozalarda ta'minlash va unda mikroiqlim, oziqlantirish va emlash ishlarini belgilangan grafikda amalga oshirish, zootexnik va veterinariya tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirib borilsa shundagina yosh jo'jalarni 98 99.5 %, tovuqlarni 94 96% saqlanuvchanligini ta'minlash mumkin. Yuqorida zikr etilgan krossli tovuqlardan yuqori tuxum mahsuloti olishimizni boisi shundaki, firma tomonidan taqdim etilgan andozalarga rioya qilishimizda.

Xmelniskaya T.A. va boshqalar (2011) ta'kidlashlaricha shu narsani alohida aytish lozimki, chorvachilikning barcha tarmoqlaridan farqli o'laroq, parrandachilikda seleksiya yo'li bilan sermahsul zot va xar xil yangi krosslar jadal yaratilmoqda. Bular orasida yiliga 358-363 donadan tuxum beruvchi "Rodonit 3" krossiga mansub tovuqlar yuqori tuxum mahsuldorligi bilan ajralib turishini ta'kidlash kerak. Bu kross tovuqlari tuxum yo'nalishi parrandalarining Rusiyada 20% ini, Qozig'iston va Qirg'izstonda 70% ni, O'zbekistonda 30% ni tashkil qiladi.

Azimov D. yozishicha, tovuqlarga kam donli past kalloriyali (180-200 kkal) ozuqa aralashmlari berilab, ularning 70% kepakdan iborat bo'lib, soya shroti, paxta va pista shroti bilan almashtirildi. Ozuqa aralashmalari bioqo'shimchalar bilan boyitilgan (Ronozim WX ferment preparati, biotronic SE nordonlashtiruvchi va mikotoksinlarni zarasizlantiruvchi

mikofiks Plyus 3.0). Yuqoridagi ratsionlarda oziqlantirilgan tovuqlar 3,7 foizga tuxum mahsuldorligini ko'paytirilgan.

Malsev A., Malseva N., Yadriyenskaya O., Bogdanova L., Korsheva I.larning yozishicha jadal parrandachilikda tovuqlar ratsionini mineral-vitaminlar bilan tenglashtirilmasligi parrandalarning mahsuldorlik salohiyatini ruyobga chiqarilmasligida hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin .

Kletikova L. qayd etishicha, probiotik ozuqa qo'shimchasi zacture, sut achitqi bakteriyalari; achitqilar; fermentlar (amilaza, fitoza, beta-glyukonoza, selyulaza, protaza, lipaza); mineral moddalar (kalsiy xlorid, natriy xlorid, magniy sulfat, rux sulifati) limon kislatasi dekstroza, vanil, to'ldiruvchi (*Saccharomyces cerevisiae*) va Bifitrilak parrandalarning organizmida modda almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- oqsillar almashinuvini yaxshilaydi, oqsillar zaxiralarini hosil bo'lishiga olib keladi, qonda mochevina nisbatini kamaytiradi;

- fosfor – kalsiy almashinuvini me'yorlashtiradi;

- ichaklarda sut achitqi va bifido bakteriyalar ko'paytirishini ta'minlaydi;

- ozuqalar konsersiyasini oshiradi, parrandalar jadal o'sib, rivojlanadi, bir xil parrandalar galasi shakllanib, ular ertaroq tuxumga kiradi.

Sereda T., Razumovskaya L. yozishlaricha tuxumning biologik va to'yimlilik qiymati, uni jo'ja chiqarishda ishlatish aminokislotalarning miqdori va sifati bilan belgilanadi. Ular tajribalar asosida tovuqlardan olinayotgan tuxumlar tarkibida oqsillar sintezida qatnashadigan aminokislotalar miqdorining kamayishini qayd etganlar. Shuningdek "Oq Lomann" tovuqlarida 180-kundan boshlab eng yuqori biologik qiymatga erishib inkubatsiya uchun yaroqli hisoblanadi.

Yegorov I. yozishicha tovuqlar ratsioni asosan o'simlik ozuqalaridan tashkil topsa ularga 10-15 % lizin, metionin va sistinni ko'paytirib berish kerak. Agarda ratsionda makkajo'xori nisbati kamaytirilsa unda to'yinmagan

yog' kislotalarini me'yorlash kerak bo'ladi. Parrandachilikda qimmat ozuqalar makkajo'xori va bug'doy o'rniga raps, vika, suli, kungaboqar va no'xotdan foydalanish masalalari qo'yilmoqda, bu o'rinda o'simlikshunos olimlar bilan ushbu donlarni hazmlanishini yaxshilash choralari ko'rilmogda.

Azimov S.G. ning ta'kidlashicha – sanoat asosida ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar va fermalarda naslchilik ishlarini namunali va aniq yo'lga qo'ymay turib parrandalarning mahsuldoriligi jadal ravishda oshirib bo'lmaydi. Bu parrandachilikning jadal rivojlanishiga, mahsuldorligining oshishi va mahsulot tannarxini kamayishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biridir.

Islomxo'jayev S.S., Boboyev K.L. larning ta'kidlashicha yosh parrandalar uchun tuzilgan ozuqa ratsioni uning tarkibidagi hazm qiluvchi energetik, xom protein, kelechotka, mineral moddalar, vitaminlar va mikroelementlar oziqlantirish me'yorlariga mos kelishi kerak. Ularning miqdori me'yordagidan farq qilsa, u vaqtda yosh parranda o'sishdan orqada qolib, mahsuldorligi pasayib ketadi.

Xamroqulov R., Karibayev K. larning ma'lumotlaridan tovuqlarning aminokislotalarga bo'lgan talabini qondirishda gossipolsizlantirilgan paxta shrotida foydalanish kerak. Rasionda kalsiyning yetishmasligi tuxumdorlikni pasayishiga, tuxum po'stini yupqalashishiga va mo'rtlashib, tez sinuvchan bo'lib qolishiga salbiy bo'ladi. Shuning uchun tuxumdor tovuqlarga mineral ozuqalar berish yili bilan kalsiyga bo'lgan talab qondiriladi.

Aliyev M.Sh. ma'lumotiga ko'ra Leggorn tovuqlarining liniyalararo chatishtirish natijasida oltinchi avlodda tengqurlariga nisbatan 2,7 g ko'p, bir dona tuxumning og'irligi 65,6 g yetgan.

Пындак В., Саломатин Г. yozishlaricha parrandalarga asosiy ozuqa bo'lib to'laqiymatli omixta yemlar hisoblanadi, ular yanchilgan boshqoli va dukkakli donlar, oqsil qo'shimchalar va minerallar bilan boyitilgan bo'lishi

kerak. Omixta yemlarni oqsilli vitaminli va mineral qo'shimchalar bilan boyitish ularning to'yimlilikini oshiradi.

Еропов И. yozishicha notradision shartli uch guruhga ajratish mumkin: 1-oqsilli; 2-uglevodlarga boy qo'shimchalar, dem o'rnini bosadi; 3-ko'p klechatkali ozuqalar. Notradision ozuqalar omixta yemlar tarkibiga chegaralangan miqdorda kiritiladi. Ular paxta, raps shroti, o'ttolqoni, silos, ipak qurtining kapalagi, go'sht-pat uni, teri sanoati chiqindi unlari va boshqalar kiradi .

Гуша Т.Е., Выдриска Я.В. va boshqalar tovuqlar ratsionidagi baliq unini meprin-B (bakterial biomassa) bilan almashtirib tajribalar o'tkazgan. To'la ratsionli kombikormalar tarkibiga meprin-Bdan 5-15% qo'shib, 25-75 % baliq unini kamaytirish 56 haftada 301-322 ta tuxum olishni ta'minlagan. Biologik va iqtisodiy nuqtai-nazardan tovuqlar ratsioniga 4,2 % meprin qo'shish samaradorligi aniqlangan. Кочикянс В.И . (1986) tovuqlar ratsioni maksimal darajada eprin qo'shib ko'rgan. Natijada tovuqlarning tuxumdorligi 4,5-4,2 %ga ortgan.

Хамроқулов В.- (2012) ta'kidlashicha ko'rgina parrandachilik korxonalari va ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida tuxum ishlab chiqarish uchun jami yem xarajdatlarining 60% ga yaqin qismi sarflanib, qolgan qismi yosh parrandalarni va ota – ona to'dasini parvarishlashga sarf qilinadi.

Hozirda ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lgan xo'jaliklarda bu ko'rsatkich mos ravishda 78-80 va 20-28% ga teng. Xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyati tahlil qilinganda har 1000 dona tuxum ishlab chiqarishga ketgan jami yem xarajatlari tarkibiga yosh parranda hamda ota-ona to'dasini paravrishlash uchun ketgan yem sarfini inobatga olgan holda hisob-kitob qilish talab qilinadi. Bu esa ona tovuqdan uzoq muddat mobaynida foydalanishni taqazo qiladi va o'z navbatida to'da aylanmasi koeffisientini qisqarishiga olib keladi. Ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda ona tovuqlarning mahsuldorlik ko'rsatkichi, ya'ni yil davomida

bir bosh ona tovuqdan olingan tuxumning ahamiyati katta bo'lib, xo'jaliklarning samaradorligiga iqtisodiy baho berishda eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu ona tovuqdan ishlab chiqarishda foydalanish muddatining davomiyligiga bog'liq.

Ermatov Yu.A. – Keyingi yillarda aksariyat parrandachilik korxolarida “Lomann - Trisixt” firmasidan olib kelingan “Lomann – Braun klassik” va “Lomann - Silver” krosslariga mansub tuxum olishda foydalanilmoqda. Shu bilan bir qatorda yangi barpo etilgan fermer xo'jaliklarida ham shu krosslarga mansub tovuqlardan tuxum mahsuloti yetishtirilmoqda.

Har ikkala krossga mansub tovuqlarning tuxum mahsuldorligini Samarqand tumanidagi “Original Maks-Lyuks” fermer xo'jaligida tajriba asosida o'rganib, xo'jalik sharoitida har 10 dona tuxumga oziqa sarfi “Lomann- Silver” krossli tovuqlarga 2,15 kg, “Lomann Braun-klassik” krossli tovuqlarga 2,40 kg omuxta yem sarflangan, ya'ni 0,25 kg “Lomann-Silver” krossiga kam sarflangan. Saqlanuvchanligi 96,2% va 94,1%, “Lomann- Silver” krossli tovuqlarda 2,1 %ga yuqori. Olingan sof foyda va rentabellik “Lomann-Silver” krossli tovuqlarda yuqori bo'lib, muallif xulosasida fermer xo'jaliklariga olib kelinayotgan va urchitilayotgan istiqboli tovuqlarni “Lomann Braun-klassik” va “Lomann-Silver” krosslaridan tuxum mahsuloti olishda me'yordagi mikroiklim sharoitlarini yaratish va to'la ratsionli quruq omuxta yem bilan ozuqlantirishda 10-15% qo'shimcha tuxum mahsuloti olish mumkin.

Rahmonov L.K. takidlashicha yosh jo'jalar tovuqxonaga keltirishdan oldin jo'jaxonani 2 sutka yoki 48 soat oldin 33-35<sup>0</sup>S qizdirish, bino ichi havosining nisbiy namligi maqbul hisoblangan 60-70% da bo'lishi, jo'jalarning bemalol suv icha olishlari uchun bino ichiga qo'shimcha suvdonlarni o'rnatish, jo'jalar bino ichiga joylashtirilgan paytda ichmik suvi harorati jo'jaxona harorati darajasida bo'lishi lozim, aks holda iste'mol qilingan ozuqalardan hosil bo'luvchi energiyaning bir qismi tana haroratini

saqlash va suvni tana harorati darajasigacha isitish uchun sarflanadi. Bir kunlik jo'jalarning joylashish tig'izligi me'yorda bo'lishi, hayotining dastlabki 7 kunida jo'jaxonaga o'rnatilgan kirish-chiqish havo tuynuklari berkitilgan, yelvizakning oldini olish uchun shamollatgichlar to'xtatilgan bo'lishi lozim va hayotining birinchi haftasida jo'jalarga tarkibida 6% glyukoza va 1g/l s vitamin etilgan suv ichirish tavsiya qilinadi. Hayotining dastlabki 3-4 kunida jo'jalar uchun oppoq (30-50 lyuks) yorug'lik berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2003-2004 yillardan e'tiboran Respublika qishloq xo'jaligi sohasida mavjud bo'lgan jamoa va shirkat xo'jaliklari asta - sekinlik va bosqichma - bosqich fermer xo'jaliklariga aylantirila boshlandi va mamalakat agrar sektori uchun muhim bo'lgan bu jarayonning huquqiy asosi yaratildi. Xususan, 2000 yil 25 mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faolligi erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi; 1998 yilda qabul qilingan «Fermer xo'jaligi to'g'risida» va «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Davlat qonunlari; 2000 yil 4 martdagi «Fermerlarni xususiy tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa subyektlarni qo'llab - quvvatlash chora - tadbirlari to'g'risida» gi PQ - 75 sonli, «Qishloq xo'jalingini ishlab chiqarish va shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish va majburiyatlarini bajarishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-383 sonli qarorlari hamda 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohatlarini chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi 3226 - sonli va 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004 - 2006 yillarda fermer xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi 3342 sonli farmonlarini keltirish mumkin.

Sanayev G'.N. "Fermer xo'jaliklarida sut-go'sht mahsulotlari harajatlarini hisobga olish, ularning tannarxni hisoblashni takomillashtirish" nomli monografiyasida (Toshkent, Fan nashr., 2007 yil, 119 bet.) qoramolchilik tarmog'ida sut - go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ularning

tannarxini aniqlashning metodologik va uslubiy jihatlari respublikamizda istiqbolli xo'jaliklardan bo'lgan fermer xo'jaliklari misolida keng va oddiy tilda yozilgan.

Bunda agrosanoat majmuida turli mulk shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi subektlar vujudga kelishinig nazariy asoslari, amaliy ahamiyati keng yoritilgan, jumladan, "Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda birinchi o'rinda mulkiy munosabatlar bo'lib bunda barcha ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tovar-pul munosabatlarining asosiy negizi sifatida qaraladi". Bizga ma'lumki, Respublikamizdagi fermer xo'jaliklari mahsulotlarini, jumladan chorvachilik mahsulotlarining salmoqli qismini ishlab chiqarmoqdalar, eng muhimi esa mahsulotlar sifati yaxshi bo'lishi bilan birga barcha chorva mollarining mahsuldorligining oshirishga erishilmoqda.

Lekin, bu shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarining to'liq imkoniyatlaridan foydalana olyapti deya olmaymiz. Bunda moddiy, ma'naviy hamda intellektual resuslar to'liq ishlatilmasdan, olinayotgan natija bozor iqtisodiyotini samarali ishlashga to'liq imkoniyat yaratganicha yo'q deb ta'kidlagan.

Hakimov R. "O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari" nomli monografiyasida O'zbekiston Respublikasi qishloq xujaligida olib borilgan iqtisodiy isloxlarning natijalari Respublikada chorvachilik mahsulotlari bozorining shakllanishi va amal qilishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shu bilan birga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning bozor shakllari va ularning imkoniyatlarini yuksaltirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Monografiyada chorvachilikning yem-xashak bazasini mustaxkamlashning iqtisodiy muammolariga, uning mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimlarini takomillashtirish masalalariga aloxida e'tibor qaratilgan.

Monografiyada "Chorvachilikning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish ko'plab omillarga bog'liq. Ularning ichida eng asosiysi yem-xashak xarajatlaridir" deb aloxida bob shaklida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Shu bilan birga “Respublikada qoramolchilikning istiqbolli 300 va undan ko’p bosh mol saqlaydigan yirik chorvachilik fermer xo’jaliklariga nisbatan 35-40 bosh miqdorida ushlash maqsadga muvofiqdir” deb muallif o’z takliflarini bergan.

Monografiyaning 2-chi bobida shirkat xo’jaliklari dexqon-fermer xo’jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish muammolariga alohida-alohida bo’limlar keltirilgan. Jumladan, shirkatlarda mulkka egalik masalasi: chorvachilik mahsulotlari tannarxining yuqori bulib ketish sabablari: chorva mollarini yem-xashak va omuxta yem bilan ta’minlash masalasi: shirkat xo’jaliklarida oilaviy pudrat tamoyillariga asoslangan chorvachilik fermalarini tashkil etish zaruriyati: chorvachilikda mehnatni tashkil etish va zaruriyati; chorvachilikda mehnatni tashkil etish va rag’batlantirish tizimlarini rivojlantirish muhimligi asoslab berilgan.

Hayvonlar organizmiga boshqa iqlim ko’rsatgichlari qatori xavoning namligi ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. Xavo namligining 85 % yuqori bo’lishi organizmdan issiqlik ajralishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Xavo tarkibida namlikning ko’p bo’lishi issiqlikni normallashtirishini kamaytiradi. Namlikni va xaroratni yuqori bo’lishi issiqlik ajralishini kamaytiradi natijada organizm qizib ketadi. Natijada modda almashinuvi pasayadi, ishtaxa yo’qoladi, xayvonlar bo’shashadi maxsuldorligi kamayib turli xil yuqumli kasalliklarga jidamlilik qobilyati pasayib yuqumsiz kasalliklarga beriluvchan bo’lib qoladi. Yuqori namlik va xaroratning past bo’lishi xayvonlar organizmiga salbiy ta’sir qiladi. Nam xavoning issiqlik qabul qilishi quruq xavoga nisbatan o’n barobar yuqori bo’ladi. Natijada quruq xavoga nisbatan nam xavo ko’p issiqlikni qabul qilib oladi. Yuqori namlik past xarorat bilan birgalikda issiqlik ajralishi ko’paytiradi organizmning sovib ketishiga va shamollash kasalliklarini kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Ayniqsa yosh mollar bunday o’zgarishlarga sezuvchan bo’ladilar. Shuning uchun xayvonlarni nam, zax binolarda saqlash burunning yallig’lanishi, bronx va o’pka kasalliklarini kelib chiqishiga sababchi bo’ladi hamda oshqozon-ichak, mastit, tuberkulyoz,

trixofitiya kasalliklari hamda molarning maxsuldorligini kamayib ketishiga olib keladi.

Yuqori namlik va havo haroratining o'zgarib turishi xayvonlarning fiziologik holatiga maxsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suvonqulov Yu.A. (2003), Qo'ldoshev O., D.Eshimov (2009) kuzatishlaricha Samarqand viloyati xo'jaliklarida issiq iqlim sharoitida molxonalarida va yayrash maydonchalarida haroratni pasaytirish choralari (ayvonlar, bostirmalar) dan foydalanilganda yaxshi natijalar olingan.

Musinov Ya.X., A.J. Chalabayevlar (2010) o'z ilmiy izlanishlarida shunday xulosaga kelishganki, yuqori harorat va quyosh radiyasiyasi sigirlarning sut mahsuldorligini kamayishiga sababchi bo'lgan. Sigirlarni bir hafta davomida quyosh nurlari ostida yayrash maydonchasida saqlanishi, ularning sut mahsuldorligining 33% ga kamayishini kuzatganlar. A.T. Seminyuta (1992) aniqlashicha sigirlar uchun optimal mikroiqlim ko'rsatkichlarini hamda saqlash usullarini to'g'ri tashkil qilish bilan birga to'yimli ozuqalar bilan ta'minlash natijasida sigirlarning mahsuldorligi 40 – 70% yuqori bo'lgan mikroiqlim ko'rsatkichlarini to'g'ri tashkil qilinmagan xo'jaliklarda buzoqlar o'rtasida 5 – 40% kasallanib o'lish holatlari kuzatilgan.

## **1. QISHLOQ XO'JALIKLARIDA RESURLARDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI**

Samarqand viloyati Samarqand tumani 1938 yil 15 yanvarda tashkil qilingan. Tumanda 3 ta shaxarcha va 33 ta qishloq fuqorolar yig'inida 238134 kishi istiqomat qilib kelishmoqda. Tuman fermer xo'jaliklari tomonidan turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bundan tashqari tumanda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyotning real sektorlari yaxshi rivojlangan. Masalan parrandachilik, sabzavot mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash bilan bog'liq ko'plab qo'shma korxonalar ishlab turibdi. Tumanda g'allachilikka ham katta etibor berilmoqda. Xususan 2013 yil 4090 ga maydonda g'alla yetishtirgan bo'lib, har 1 ga maydondan 51,6 s. hosil olingan. Bu natijaga erishish uchun tumanda almashlab ekish tadbirlari olib borilgan.

Tumanda infratuzilmalarga to'xtaladigan bo'lsak, xozirgi kunda tumanda 14 ta shifoxona axolining sog'lig'ini saqlashda, yoshlarga ta'lim berish uchun 33 ta umuta'lim maktablari, 4ta kasb xunar kolejlari hamda 18 ta maktabgacha ta'lim muassasalari xizmat qilib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning moddiy elementlari orasida yer resurslari muhim o'rinni egallaydi. U moddiy boylik yaratishning dastlabki shart-sharoiti va tabiiy asosi hisoblanadi. Klassik iqtisodchilar, yerni mehnat vositalari, mehnat predmetlari va manzilgoh joylarni yaratuvchi buyuk laboratoriya, xazina ekanligini ta'kidlaganlar. Yer resurslari - buyuk va hych narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan milliy boylik. Yer resurslari, boshqa ishlab chiqarish vositalardan tubdan farq qilgani holda, asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiga katta tasir ko'rsatadi.

1. Yer tabiat mahsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini o'zgartiradi, bu uning mehnat predmeti ekanligi. o'simliklarning rivojlanishi va o'sishga ta'sir ko'rsatishi uning mehnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chiqarish vositasi ekanligini bildiradi.

2. Yerning hududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi insonnig xohishi bilan ko'payib qolavermaydi.

3. Yerni almashtirish mumkin emasligi. Yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bo'lmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.

4. Yerni siljitib bo'lmasligi. Yer qayerda joylashgan bo'lsa, o'sha yerda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga ko'chirish mumkin emas.

5. Yer uchastkalarining sifati bo'yicha turli tumanligi. Yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag' va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bo'lishi mumkin.

6. Boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda eskiradi, o'zining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chiqadi.

Yer umrbodlik ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish qilinsa, ko'p hosil beradi. Yerning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya'ni parvarish qilinayotgan o'simlikni zarur ozuqa moddalari bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga bog'liq. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1. Tabiiy
2. Sun'iy
3. Iqtisodiy

Tuproqning unumdorligi - quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta'sirida uzoq davom etgan tuproq hosil bo'lishi jarayonining natijasidir. Tuproqning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini xarakterlaydi, u dehqonchilik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi.

Yerdan foydalanish xarakteri ko'pgina tabiiy, tarixiy, texnik, iqtisodiy va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bunda hal qiluvchi rolni sosial-iqtisodiy omil

o'ynaydi. Jamiyatda hukmronlik qiluvchi ishlab chiqarish usuli, shuningdek iqtisodiy munosabatlarning holati yer munosabatlarining xarakterini aniqlaydi. O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar;
2. Aholi punktlarining yerlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar;
5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
6. O'rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Davlat zahira yerlari.

Xozirgi kunda Respublikamizda fermer xo'jaliklari yer resurslardan samarali foydalanishini ta'minlash maqsadida yiriklashtirish tadbiri amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda asosiy unumdor yerlar sug'oriladigan yerlar hisoblanadi (1.1-jadval).

#### 1.1-jadval

#### **O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlar maydonini o'zgarishining dinamikasi (ming ga) (2010-2012 yy.)\***

|                     | Yillar      |                        |             |                        |             |                        | 2012 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, % |                        |
|---------------------|-------------|------------------------|-------------|------------------------|-------------|------------------------|--------------------------------------------|------------------------|
|                     | 2010        |                        | 2011        |                        | 2012        |                        |                                            |                        |
|                     | Jami yerlar | Sh.j.: sug'ori ladigan | Jami yerlar | Sh.j.: sug'ori ladigan | Jami yerlar | Sh.j.: sug'ori ladigan | Jami yerlar                                | Sh.j.: sug'ori ladigan |
| Respublika bo'yicha | 44410,5     | 4273,3                 | 44410,3     | 4278,8                 | 44410,3     | 4277,9                 | 100,0                                      | 100,1                  |

\*Manbaa: [www.stat.uz](http://www.stat.uz). Internet sayti

1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2012 yilda Respublikamizda jami yerlar 44410,3 ming ga.ni tashkil etgan, sug'oriladigan yerlar esa 4277,9 ming

ga. bo'lib, 2010 yilga nisbatan jami yerlar o'zgarmagan, sug'oriladigan yerlar 0,11 %ga oshgan.

Samarqand viloyatining umumiy yer fondi 1511,6 ming gektar bo'lib, shundan qishloq xo'jalik yerlari 1221,7 ming gektarni tashkil qilib bundan so'g'oriladigan ekin yerlari 254,6 ming gektarni tashkil qiladi.

Har bir qishloq xo'jalik korxonasini o'rganishda avvalo yer resurslari o'rganiladi. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Samarqand viloyati Samarqand tumani fermer xo'jaliklari yer resurslaridan foydalanish xolatini tahlil qilamiz.

**1.2 – jadval**

**Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida ekin maydoni tarkibining o'zgarishi (ga, 2011-2013 yy)\***

| № | Ko'rsatkichlar | Yillar  |         |         | 2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi , % |
|---|----------------|---------|---------|---------|---------------------------------------------|
|   |                | 2011    | 2012    | 2013    |                                             |
| 1 | Sabzavot       | 5585    | 3255    | 3951    | 70,7                                        |
| 2 | Poliz          | 30      | 30      | 175     | 5,8 marta oshgan                            |
| 3 | G'alla         | 4375    | 3890    | 4090    | 93,5                                        |
| 4 | Kartoshka      | 578     | 578     | 388     | 67,1                                        |
| 5 | Meva           | 1932    | 1932    | 1932    | 100,0                                       |
| 6 | Uzum(hosilli)  | 2741    | 2741    | 2967    | 108,2                                       |
| 7 | Boshqa yerlar  | 1898,9  | 4705,9  | 3647,9  | 1,9 martaga oshgan                          |
|   | Jami:          | 17139,9 | 17131,9 | 17150,9 | 100,1                                       |

\*Manba: Samarqand tumani Qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand tumanida 2011 yilda sabzavot yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydoni 5585 gektarni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 3951 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 1634 gektarga yoki 29,3 foizga kamaygan. 2011 yilda poliz mahsulotlari yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydoni 30 gektarni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 175 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda

2011yilga nisbatan 145 gektarga yoki 5,8 martaga oshgan. 2011 yilda g'alla ishlab chiqarish uchun ajratilgan yer maydoni 4375 gektarni tashkil etgan, 2013 yilda bu ko'rsatkich 4090 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 285 gektarga yoki 6,5 foizga kamaygan. 2011 yilda kartoshka ishlab chiqarish uchun ajratilgan yer maydoni 578 gektarni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 388 gektarni tashkil etgani holda 2013yilda 2011 yilga nisbatan 190 gektarga yoki 32,9 foizga kamaygan. 2011 yilda hosilli uzumzorlar 2741 gektarni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilda bu ko'rsatkich 2967 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 226 gektarga yoki 8,2 foizga oshgan. Tuman fermer xo'jaliklari jami ekin maydoni 2011 yilda 17139,9 gektarni tashkil etib, 2013 yilda bu ko'rsatkich 17150,9 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 11,0 gektarga yoki 0,1 foizga o'sgan.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish salohiyatining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasini kengaytirish qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish birlamchi ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva oзуqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi xalq xo'jaligini boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdorligi har xil bo'lib, mahsulot birligi ychyn har xil miqdorda xarajat sarflanadi. Bu esa har xil unumdorlikka ega bo'lgan yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tuproq - iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil sistemadagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqti bir biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi zahira urug'lik, ozuqa, yoqilg'i moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, parrandalar, ko'p yillik daraxtlar va hokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmoqlik kerak.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, sifatli yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarflar qilishni taqozo etadi,

Shuningdek, Har qanday ishlab chiqarish kabi kishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Har bir qishloq xo'jalik korxonasining fondlar bilan ta'minlanganligi ishlab chiqarishning to'g'ri va soz olib borilishi garovidir. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Samarqand viloyati Samarqand tumani fermer xo'jaliklari moddiy-texnika resurslari o'zgarishini 1.3-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati 2011 yilda 18582791 ming so'mni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 20597385 ming so'mni

**Samarqand viloyati Samarqand tumani fermer xo'jaliklarining asosiy vositalar qiymatini o'zgarishi (2011-2013 yy.)\***

| №  | Ko'rsatkichlar          | Yillar             |             |                    |             | 2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarish |             |
|----|-------------------------|--------------------|-------------|--------------------|-------------|----------------------------------------|-------------|
|    |                         | 2011               |             | 2013               |             |                                        |             |
|    |                         | Qiymati, ming so'm | Salmog'i, % | Qiymati, ming so'm | Salmog'i, % | Qiymati, ming so'm                     | Salmog'i, % |
| 1. | Binolar                 | 92914              | 0,5         | 82389,5            | 0,4         | -10524,5                               | -0,1        |
| 2. | Inshootlar              | 1616702,8          | 8,7         | 2142128            | 10,4        | 525425,2                               | 1,7         |
| 3. | Uzatish qurilmalari     | 6578308            | 35,4        | 7106097,8          | 34,5        | 527789,8                               | -0,9        |
| 4. | Transport vositalari    | 3140491,7          | 16,9        | 3831113,6          | 18,6        | 690621,9                               | 1,7         |
| 5. | Mashina va uskunalar    | 2062689,8          | 11,1        | 2368699,3          | 11,5        | 306009,5                               | 0,4         |
| 6. | Ko'p yillik daraxatlar  | 4478452,6          | 24,1        | 4407840,4          | 21,4        | -70612,2                               | -2,7        |
| 7. | Hisoblash texnikasi     | 18582,8            | 0,1         | 20597,4            | 0,1         | 2014,6                                 | 0           |
| 8. | Boshqa asosiy vositalar | 594649,3           | 3,2         | 617921,6           | 3,0         | 23272,3                                | -0,2        |
|    | Jami:                   | 18582791           | 100         | 20576788           | 100         | 1993996,6                              | 0           |

\*Manba: Samarqand viloyati Samarqand tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatani 1993996,6 ming so'mga yoki 10,7 foizga oshgan. G'allachilikda yerlarning fondlar bilan ta'minlanishi 2013 yilda 4383,6 ming so'mni, mehnatning fondlar bilan qurollanishi esa 10969,0 ming so'mni tashkil etgan. Fond sig'imi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 0,11 so'mga kamaygan bo'lsa, fond qaytimi 8,4 so'mga yoki 12,8 %ga oshgan.

1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mehnat Kodeksi»ning 1-bob 8-moddasida mehnatning ulug'vorligi to'g'risida shunday deyilgan: «Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu

himoya mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi».

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar -16 dan 60 yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mehnat resurslari tarkibiga

1. Doimiy.
2. Mavsumiy.
3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi.
4. O'smirlar.
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

Shu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul qilinganlar kiritiladi.;

Korxonalarning mehnat resurslaridan tashqari ba'zi hollarda qishloq xo'jaligida (mavsumiy ishlarda) mehnat shartnomasi asosida chetdan jalb qilinganlar mehnatidan ham foydalaniladi, shu jumladan yollanma ishchilar ham. Qishloq xo'jalikda mehnat resurslarining shakllanish va foydalanishning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Biologik ishlab chiqarish vositalari, tirik organizmlar - tuproq, o'simlik, hayvonlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun xodimlar mehnati mazmunining yo'naltirilganligi. Bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tirik organizmlarining rivojlanishi, o'zgarishiga, ularning tabiatini noorganik elementidan organik moddalarga sintezlashuviga bog'liqdir;

2. Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususan, yerning umumdorligi va ob-havo iqlim sharoitlariga bog'liq. Chunki iqlim tez o'zgarib turganligi uchun o'simlik va hayvonotga qulay sharoit yaratish lozimdir;

3. Ko'p xodimlarning bir qancha mehnat vazifalarini bajarishi. Bunday aralashishning zarurligi ish turining ko'pligi va bajarish muddatining mavsumiyligidan kelib chiqadi. Qishloq xo'jaligi xodimi alohida texnologik operasialarni bajarishga ixtisoslashgan tor malakali bo'lmasligi kerak. Qishloq xo'jalik xodimi ma'lum turdagi pirovard mahsulot yetishtirishga keng ixtisoslashgan bo'lishi kerak;

4. Ishlab chiqarish jarayonida yer, mollar va boshqa resurslarning mustaqil emasligi. Pirovard mahsulot natijasiga iqtisodiy javobgarligini ta'minlash uchun xodimlarga umumiy yerlarni emas, balki aniq dalalarni, butun hayvonlarni emas, balki aniq mollar bosh sonini berkitib qo'yish lozimdir;

5. Mehnat jarayonlarining o'z-o'zini boshqarishi. Biologik ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, qishloq xo'jaligida, ayniqsa o'simlikchilikda biologik jarayonda sharoitlar tez-tez o'zgarib turadi, shuning uchun bu yerda chetdan turib boshqarish imkoniyati ancha chegaralangan;

6. Xodimlar daromadining o'simlikchilikda va chorvachilikda pirovard iqtisodiy natijalarga bog'liqligi. Bu bog'liqlik mehnat operasialarini bajarish paytida xodimdan texnologik talablarga rioya qilishda o'zini qattiq nazorat qilishning bevosita sharti bo'lib hisoblanadi;

7. Xodimlar daromadining faqat ijtimoiy xo'jalikda emas, balkiy shaxsiy dehqon xo'jaligida ham qo'llanilishi. Samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uning mehnat resurslari bilan me'yor bo'yicha ta'minlashishiga bog'liqHar bir qishloq xo'jalik korxonasida ishlab chiqarishni ta'minlash uchun uning yetarli mehnat resurslari bo'lishi lozim. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Samarqand viloyati Samarqand tumanida mavjud mehnat resurslarining xolati va undagi o'zgarishlarni 1.4-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

1.4-jadval

**Samarqand viloyati Samarqand tumanida yashovchi mavjud aholi va ularning tarkibiy o'zgarishi (kishi, 2011-2013yy.)\***

| №  | Aholi kategoriyalari                                        | Yillar |        |        | 2013yilda<br>2011yilga<br>nisbati,<br>% |
|----|-------------------------------------------------------------|--------|--------|--------|-----------------------------------------|
|    |                                                             | 2011   | 2012   | 2013   |                                         |
| 1. | Aholi soni                                                  | 199834 | 218134 | 238134 | 119,1                                   |
| 2. | Mehnat resurslari soni:                                     | 165023 | 167700 | 169880 | 102,9                                   |
|    | Shundan xotin-qizlar                                        | 80375  | 82015  | 83687  | 104,1                                   |
|    | yoshlar soni                                                | 49348  | 50434  | 51703  | 104,7                                   |
|    | -iqtisodiyfaolaholi soni                                    | 164527 | 167200 | 169540 | 103,0                                   |
|    | shundan xotin-qizlar                                        | 60685  | 62320  | 63589  | 104,7                                   |
| 3. | Ishbilan band bo'lganaholi soni                             | 98723  | 100400 | 107510 | 108,9                                   |
|    | shundan xotin-qizlar                                        | 41289  | 42375  | 43575  | 105,5                                   |
|    | Qishloq xo'jaligida band aholi                              | 15150  | 15950  | 17150  | 113,2                                   |
|    | shundan: xotin-qizlar                                       | 8568   | 8781   | 8981   | 104,5                                   |
|    | Dexqon xo'jaliklarida band aholi                            | 3214   | 3420   | 3468   | 107,9                                   |
|    | shundan: xotin-qizlar                                       | 1857   | 1848   | 1952   | 105,1                                   |
|    | Shunda nvaqtinchalik ishlarda band bo'lganlar               | 4360   | 4800   | 4837   | 110,9                                   |
| 4. | Ishbilan band bo'lmaganaholi soni                           | 65804  | 66800  | 62030  | 94,2                                    |
|    | shu jumladan:                                               |        |        |        |                                         |
|    | xotin-qizlar soni                                           | 19396  | 19945  | 20014  | 103,1                                   |
|    | yoshlar soni                                                | 7674   | 8760   | 8943   | 116,5                                   |
| 5  | Ishsizlik darajasi (iqtisodiy faol axoli soniga nisbatan %) | 39,9   | 39,0   | 36,5   | -3,4                                    |

\*Manba:Samarqand viloyati Samarqand tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Qishloq xo'jaligida band aholi soni2011 yilda 15150 kishini tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 17150 kishini tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 13,2 foizga oshgan. 2011 yilda dehqon xo'jaliklarida bandlar soni 3214 kishini tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 3468 kishini tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 7,9 foizga oshgan

### **3. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNING MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDA ZOOGIGIYENIK TADBIRLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING HOZIRGI HOLATI**

#### **3.1. Samaradorlik tushunchasi, mezoni, turlari, ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi etapdagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Bir tomonda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish oziq-ovqat va xom ashyoga bo'lgan talabning o'sib borishi va qiyinlashishi, mahsulot sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Mamlakatda to'plangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning aktivligi, ularning tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy qiziqishining o'sishi o'simchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytiradi va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilganda, «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarining bir xil emasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» termini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan – ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara»- qishloq xo'jalik mahsulotlari shaklida(natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda sferasida esa iqtisodiy, shuningdek xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi sosial o'sish bo'lishi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs(xarajatlar)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurs(xarajat)lar turli samara berishi mumkin. Shuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurslar(xarajatlar) bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, samara(natija) deb atalgan absolyut miqdor bilan bir qatorda yana bir absolyut miqdor – qo'llanilgan yoki iste'mol qilingan resurslarni(joriy ishlab chiqarish xarajatlari) hajmini bilish zarur.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samaraning (natijaning) resurslarga(xarajatlarga) nisbati yoki aksincha usul bilan aniqlanadi:

$$IS = \frac{S(n)}{R(x)}; \quad \frac{R(x)}{S(n)}$$

Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday bahodagi resurslar hisobiga iqtisodiy samaraga erishilganliging bildiradi. Samara qancha katta va xarajat shuncha kichkina bo'lsa, ishlab chiqarish iqtisodiy samadorligi shuncha katta bo'ladi va aksincha. Resurslar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida ma'lum bir aloqa mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lishi mumkin: jonli va buyumlashgan. Jonli mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning absalyut miqdori resurslar (xarajatlar) sifatida, ular miqdorining kamayishi va ularni tejash – iqtisodiy samara shaklida ko'rinadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mohiyati, uning kriteriyasi va ko'rsatkichlari orqali amalga oshadi.

Mezonning ilmiy tushunchasi ma'lum bir belgi, baho o'lchovini ifodalaydigan asosiy sifati uning muhim xossasidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mezoni jamiyatga kerak bo'lgan yer maydoni birligidan

chiqadigan qishloq xo'jalik mahsulotining olinishi shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tejamliligi va yuqori sifatini ta'minlashdir.

Ko'rsatilgan mezon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadiga – tarmoq mahsulotiga aholining o'sib borayotgan talabini to'laroq qondirishga javob beradi va uning yutuqlari yo'lini – ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va intensivlashtirish asosida sistemali ravishda ishlab chiqarishni pasaytirishni aniqlab beradi.

Qishloq xo'jaligida samara va resurslarning bosqich darajasiga qarab, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi turlarga bo'linadi: xalq xo'jaligi, tarmoq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi, davlat, kooperativ korxonalar, ijara kollektivlari, dehqon xo'jaliklari samaradorligi, ayrim qishloq xo'jalik tarmoqlari va mahsulotlari samaradorligi, alohida ishlab chiqarish resurslari, shuningdek alohida xo'jalik tadbirlari agrotexnik, zootexnik, veterinariya, texnika, iqtisodiy tashqiliy munosabatlar va boshqalarning samaradorligi aniqlanadi.

Xalq xo'jaligi samaradorligi oziq-ovqatga bo'lgan iste'molini qondirish, sanoatning xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, tarmoqni umumdavlat, xalq xo'jalik topshiriqlari va muammolarini hal qilishda moliyaviy hissassi nuqtai nazaridan baholanadi. Tarmoq samaradorligi resurslar potensialidan foydalanishda, xalq xo'jaligining shu tarmog'ida samara (natija) va resurs (xarajat) o'rtasidagi erishilgan nisbatning natijasini aks ettiradi.

Qabul qilingan samaradorlikni konsepsiyasilariga mos ravishda ko'rsatkichlari ham aniqlanadi:

1 ta xodimga, 1 kishi/soatiga, 1 ga qishloq xo'jalik yaroqli yerga, 100 so'mlik asosiy vositaga, 100 so'mlik oborot vositalariga to'g'ri kelgan samara qo'llanilgan resurslardan foydalanishni samaradorligini xarakterlaydi. 100 so'm ish haqiga, amortizasiya ajratmasiga, moddiy aylanuv vositalariga hamda mahsulot tannarxiga to'g'ri kelgan mahsulot tannarxga kiritilgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlari samaradorligini ifodalaydi.

### **3.2. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini oshirishda zoogigiyenik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligining hozirgi holati tahlili**

Samarqand tumani Oxalik qo'rg'onida joylashgan "Oxalik-Lomann - Parranda" O'zbekiston-Germaniya qo'shma parrandachilik korxonasi viloyat markazidan 25 km, tuman markazidan 10 km, temir yo'l shaxobidan 18 km uzoqlikda joylashgan bulib, yer relyefi notekis, toshloq va qumloq bo'lib, yer osti suvlari 8-10 metr chuqurlikda ayrim joylarda 15-20 metr chuqurlikda joylashgan. Iqlim sharoiti keskin o'zgaruvchan bo'lib, yil faslning kelishiga qarab qish oyi  $-5-10^{\circ}\text{S}$  sovuq, yoz oylarida esa  $+35-40^{\circ}\text{S}$  gacha issiqlik xarorati ko'tariladi.

Parrandachilik korxonasi ochiq turdagi aksionerlik jamiyati bo'lib, O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi hisoblanadi. "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi 1980-1989 yillar davomida VNITIP ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan tovuqlarni "Belorus -9", Belarus -11" Belarus-19" va "Start" krosslari urchitilib, ulardan tuxum maxsuloti olingan. Ushbu krosslar nafaqat "Oxalik Lomann – Parranda" parrandachilik korxonasida qolaversa barcha O'zbekistondagi parrandachilik korxonalarida urchitilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz ichki bozorni yuqori sifatli parranda maxsulotlari bilan to'ldirish, o'sib borayotgan halq ommasini parranda mahsulotlari bilan ta'minlash shu bugungi kunni dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi, Shu munosabat bilan yuqori tuxum mahsuldorlikka ega bo'lgan tovuq krossidan foydalanishni taqazo etadi. Aynan shunday krosslardan biri "Lomann- Braun" xisoblanib, jahonda keng miqyosda tarqalgan. Ilk bor O'zbekiston – Germaniya tashkiloti tuzilib, "Oxalik Lomann – Parranda" parrandachilik korxonasi ishni boshlashdi. Bu tashkilot asoschilaridan biri direktor R.K. Arifjonov va "Lomann - Tirsux" firmasini prezidenti Yu. Raymers xisoblanadi. Ko'p yillardan buyon respublikamizda "Lomann Braun-klassik krossi urchitib kelinmokda. 2007 yildan boshlab "Lomann LSL – klassik" krossiga mansub tovuqlar

urchitilmoqda “Lomann – Broun – klassik” tovuqlari jigarrang tusda bo’lib, jigarrang tuxum beradi. “Lomann – LSL- klassik” tovuklari esa po’chog’i oq rangda tuxum beradi.

Parrandachilik korxonasi ochiq turdagi aksionerlik jamiyati bo’lib, O’zbekiston-Germaniya qo’shma korxonasi xisoblanadi. “Oxalik Lomann–parranda” parrandachilik korxonasi 1980-1989 yillar davomida VNITIP ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan tovuqlarni “Belorus-9” , Belarus -11” Belarus-19” va “Start” krosslari urchitilib, ulardan tuxum maxsuloti olingan. Ushbu krosslar nafaqat “Oxalik Lomann – Parranda” parrandachilik korxonasida qolaversa barcha O’zbekistondagi parrandachilik korxonalarida urchitilgan. Bozor iqtisodiyotiga o’tishimiz ichki bozorni yuqori sifatli parranda maxsulotlari bilan tuldish, usib borayotgan xalq ommasini parranda mahsulotlari bilan ta’minlash shu bugungi kunni dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi shu munosabat bilan yuqori tuxum maxsulodorlikka ega bo’lgan tovuq krossidan foydalanishni taqazo etadi. Aynan shunday krosslardan biri “Lomann- Braun” xisoblanib, jaxonda keng miqyosda tarqalgan. Ilk bor O’zbekiston – Germaniya tashkiloti tuzilib, “Oxalik Lomann – Parranda” parrandachilik korxonasi ishni boshlashdi. Bu tashkilot asoschilaridan biri direktor R.K. Arifjonov va “Lomann - Tirsux” firmasini prezidenti Yu. Raymers xisoblanadi. Ko’p yillardan buyon respublikamizda “Lomann Braun-klassik krossi urchitib kelinmokda. 2007 yildan boshlab “Lomann LSL – klassik” krossiga mansub tovuqlar urchitilmoqda “Lomann – Broun – klassik” tovuqlari jigarrang tusda bo’lib, jigarrang tuxum beradi. “Lomann – LSL- klassik” tovuklari esa po’chog’i oq rangda tuxum beradi.

Hududimiz iqlim sharoitiga moslashtirish bilan, parrandalarni oziqlantirish borasida maxalliy ozuqa zaxiralarini axtarib topish oziqlantirish retseptlarini takomillashtirish borasida tinimsiz ishlar olib borilmoqda. Xo’jalikda mavjud parrandalarni saqlash o’stirish va oziqlantirish borasida fan texnika yangiliklarni joriy qilish, parranda

maxsulotlarini ishlab chiqarishda ilg'or ishlab chiqarish yutuqlaridan foydalanilmoqda. Shu sababli yosh parrandalarni saqlanuvchanligi 98-99,5 %, katta yoshdagi parrandalarni saqlanuvchanligi 94-96 % tashkil etmoqda. Shu bugungi kunda “Oxalik Lomann-Parranda” parrandachilik korxanasini umumiy yer maydoni 81,2 gektar bo'lib, shundan 70 gektari parranda maxsulotlari ishlab chiqarish uchun ixtisoslashtirilgan binolar va kichik inshootlarga ajratilgan, 5 gektar ko'p yillik va bir yillik daraxtzorlar va ko'kalamzorlashtirish uchun ajratilgan.

Xo'jalikni Raxmatov Ikrom boshqarib, 23 ta mutaxassislar va jami 450 ta xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etmoqda, shundan 300 ta erkaklar 67% tashkil etsa, ayollar 150 ta 33,3% tashkil qiladi.

### 3.2.1-jadval

#### **“Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasida parrandalar sonining o'zgarishi tahlili (ming bosh, 2011-2013 yy.)\***

| Ko'rsatkichlar   | Yillar |       |      | 2013yil 3011 yila nisbatan o'zgarishi, +,- |
|------------------|--------|-------|------|--------------------------------------------|
|                  | 2011   | 2012  | 2013 |                                            |
| Jami parrandalar | 378,8  | 319   | 460  | 81,2                                       |
| Shundan tovuqlar | 307,6  | 303,0 | 304  | -3,6                                       |
| Jujalar          | 4,4    | 16    | 156  | 151,6                                      |

Manba: “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi ma'lumotlari

3.2.1-jadval ma'lumotlarida ko'rinib turibdiki, “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasida parrandalar bosh soni 2011 - yilda 378,8 ming bosh bo'lsa, 2013 - yilga kelib, 460 ming boshga, ya'ni 81200 boshga ko'paydi. Tuxum beruvchi tovuqlar bosh soni esa, 2010-yilga nisbatan 3600 boshga kamaygan. Jo'jalar soni esa 151600 boshga ko'paygan. 2013 yil 2011 yilga nisbatan jami parandalar soni 81,2 ming boshga, shundan tovuqlar soni 3,6 ming boshga kamaygan bo'lsa, jo'jalar soni esa 151,6 ming boshga oshgan.

### 3.2.2-jadval

#### **“Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasida mahsulot ishlab chiqarishning iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili (2011-2013 yy.)\***

| Ko’rsatkichlar                                             | Yillar |       |       | 2013yil<br>2011 yila<br>nisbatan<br>o’zgarishi,<br>+,- |
|------------------------------------------------------------|--------|-------|-------|--------------------------------------------------------|
|                                                            | 2011   | 2012  | 2013  |                                                        |
| Jami ishlab chiqarilgan tuxum, ming dona                   | 73209  | 80598 | 82080 | 8871,2                                                 |
| Jami ishlab chiqarish parranda go’shti, s                  | 3555   | 4220  | 3660  | 105                                                    |
| Inkubatorga qo’yilgan tuxumlar, dona                       | 16000  | 30850 | 32560 | 16560                                                  |
| Tuxumlardan jo’ja chiqishi, %                              | 78     | 76    | 84    | 6                                                      |
| Ming dona tuxum ishlab-chiqarish uchun omixta yem sarfi, s | 4,5    | 4,4   | 4,2   | -0,3                                                   |
| 1 s tirik vazn olish uchun omixta yem sarfi, s             | 6,1    | 6,3   | 6,2   | 0,1                                                    |

Manba: “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi ma’lumotlari

3.2.2-jadval ma’lumotlarida ko’rinib turibdiki, “Oxalik Lomann-Parranda” parrandachilik korxonasida 2011-yilda 73208,8 ming dona tuxum ishlab chiqarilgan bo’lsa, 2013-yilga kelib, 82080 ming dona, ya’ni 8087120 donaga ko’p tuxum ishlab chiqarilgan. Shu jumladan parranda go’shti 105 sentnerga ko’p ishlab chiqilgan. Korxonada, 2011 - yilda 16000 dona tuxum inkubatsiyalangan bo’lsa, 2013 - yilga kelib, bu ko’rsatkich 32560 donani, ya’ni 16560 donaga ko’p tuxum inkubatsiyalangan. O’tgan yillarga nisbatan tuxumlardan jo’ja chiqishi 6%ga oshgan. Ming dona tuxum ishlab chiqarish uchun 2013 - yilda 0,3 sentnerga omuxta yem kamaygan, 1 kg ko’shimcha tirik vazn olish uchun 0,1 sentner qo’shimcha omuxta yem sarflangan.

2013 yil 2011 yilga nisbatan jami ishlab chiqarilgan tuxum 8871,2 ming donaga, jami ishlab chiqarish parranda go’shti 105 s.ga, inkubatorga qo’yilgan tuxumlar 16560 donaga, tuxumlardan jo’ja chiqishi 6 punktga

oshga, ming dona tuxum ishlab-chiqarish uchun omixta yem sarfi 0,3 s.ga kamaygan.

### 3.2. 3-jadval

#### **“Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasining iqtisodiy samaradorligi tahlili (2011-2013 yy.)\***

| Ko'rsatkichlar                      | O'lchov birligi | Yillar   |        |        | 2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +,- |
|-------------------------------------|-----------------|----------|--------|--------|------------------------------------------------|
|                                     |                 | 2011     | 2012   | 2013   |                                                |
| Bir bosh tovuqning tuxumdorligi     | dona            | 238      | 266    | 270    | 32                                             |
| Shartnoma asosida tuxum sotish      | ming dona       | 61878    | 49598  | 65816  | 3938                                           |
| Bir dona tuxumni sotish narxi       | so'm            | 146,8    | 108    | 213    | 66,2                                           |
| Bir dona tuxumning tannarxi         | so'm            | 118,9    | 143,1  | 158,8  | 39,9                                           |
| Bir dona tuxumdan olingan foyda     | so'm            | 27,9     | 36,9   | 54,2   | 26,3                                           |
| Rentabellik darajasi                | %               | 23,5     | 25,8   | 34,1   | 10,6 punktga oshgan                            |
| 1 s parranda go'shti sotish narxi s | so'm            | 165382,3 | 300600 | 401400 | 236017,7                                       |
| 1 s parranda go'shtining tannarxi   | so'm            | 153805,3 | 279500 | 384500 | 230694,7                                       |
| 1 s sotishda olingan foyda          | so'm            | 11577    | 21100  | 16900  | 5323                                           |
| Rentabellik                         | %               | 7,5      | 7,54   | 4,4    | 3,1 punktga kamaygan                           |

Manba: “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi ma'lumotlari

3.2.3-jadval ma'lumotlarida ko'rinib turibdiki, “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasida 2011-yilda har bir bosh tovuqdan 238 dona tuxum olgan bo'lsa, 2013-yilga kelib 270 donani tashkil etdi, ya'ni 32 donaga ko'paygan. 1 dona tuxumning ishlab chiqarish tannarxi esa 118,9 so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2011 yilga kelib 118,9 so'mga, ya'ni 66,2 so'mga oshgan, sotish narxi esa 66,2 so'mga oshgan, tuxum ishlab chiqarish rentabellik darajasi esa 2013 yil 2011 yilga nisbatan 10,7 punktga oshgan.

1 s. go'sht ishlab chiqarish 2013 yil 2011 yilga nisbatan tannarxi 230694,7 so'mga, sotish narxi esa 236017,7 so'mga oshgan. Natijada olingan go'shtni sotishdan olingan foyda 5323 so'mga oshgan. Rentabelligi esa 3,1 punktga kamaygan.

Inkubatsiya sexida, shu xo'jalikda urchitiladigan ota-onalik galasi tovuqlar vazni, shakl tamoyili bo'yicha inkubatsiyaga mos, ya'ni 62-63g otalangan tuxumlar olish va ularning tuxumlarini inkubatsiyalash 84% erishilmoqda.

Xo'jalikda urchitilayotgan tovuqlarning va jo'jalarning tirik vazni talab darajasida bo'lib, andozasiga javob beradi, kunlik o'sishi 6-8g tashkil etib, tovuqlarning tuxumdorligi 270 dona (12 oyligida) 309 dona (14 oy) tuxum olinmoqda.

"Ohalik Lomann - parranda" parrandachilik korxonasida iqtisodiy ko'rsatkich 2012 yilda tovuqlar bosh soni 460 ming boshga, o'tgan yillarga nisbatan 121,4%ga oshgan tuxum ishlab chiqarish esa (82080 ming dona), 112,1 % ga oshgan, 1 dona tuxumning tannarxi 158,8 so'mga to'g'ri kelgan sotish narxi esa 213 so'mni tashkil etgan.

### **3.3. Parrandalarni oziqlantirishda gigiyena talablari va ularning hozirgi holati**

Parrandachilik – chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biridir. Parrandachilikda asosiy o'rnini tovuqchilik egallaydi. Parrandachilik axolini to'liq qimmatli tuxum va parhyez go'sht bilan yengil sanoatni pux va par bilan ta'minlaydi.

Parrandachilikni intensiv rivojlantirishda parrandalarni to'yimli oziqalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Parrandalarni to'yimli oziqalar bilan ta'minlash bilan birga, mu'tadil mikroiklim sharoitlarini yaratish har xil kasalliklarga qarshi organizm chidamliligini oshiradi va kasalliklarning oldini oladi.

Inkubatsiya qilinadigan tuxum sifati, ulardan chiqadigan jo'jalarni kasalliklarga nisbatan chidamliligi va sog'ligi ko'pincha oziqalarning to'yimlilikiga bog'liqdir. Jo'jalarga 60 kunligigacha oziqalar kuniga kamida 3 - 4 marta beriladi. Yirik xo'jaliklarda parrandalarga maxsus omuxta yemlar beriladi. Uning tarkibida kalsiy, fosfor, natriy, aminokislotalar(lizin, metionin, sistin, triptofan, arginin, gistidin, leysin, izoleysin, fenilalanin, treonin va valin)dan tashqari vitaminlar va mikroelementlar bo'ladi. Parrandalarga vitaminning yetish - yetmasligini aniqlash uchun ulardan namuna so'yilib jigarida vitamin A ni bor-yo'qligiga qaraladi. Masalan, bir kunlik jo'ja jigarida 15 - 20 mkg, 10 kunligida 25 - 30; 30 kunligida 40; 60 - 120 kunligida 80 - 100 va katta parrandalarda 300 - 350 mgr bo'ladi.

Oziqani tayyorlash, saqlash, hayvonlarga yedirishda veterinariya - sanitariya qoidalariga rioya qilinmasa parrandalarning mahsuldorligi pasayadi va ular kasallanadi. Bunday kasalliklarga zamburug'lar bilan ifloslanish (aspergillyoz, kandidomikoz va boshqalar), avitaminozlar, oqsil va mineral almashishning buzilishi va boshqalar kiradi.

Oziqlantirishni tug'ri tashkil etish parrandalar mahsuldorligiga va mahsulot tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida barcha chorvadorlar oldiga kam ozuqa sarflab ko'proq sifatli mahsulot olish vazifasi qo'yilgan.

Tovuqlarni biologik to'liq qiymatli ozuqalar bilan yetarli darajada oziqlantirilganda tuxum yunalishidagi zotli tovuqlardan 1 yilda 250 - 280 ta tuxum olish mumkin. Bunday holda 1000 ta tuxumga 1,5 - 1,7 s oziqa birligi, 10 ta tuxumga 1,5 - 1,7 oziqa birligi sarflanadi.

Tuxum beruvchi tovuqlarning tuxumdorligi, tuxumning inkubasion (jujja ochib chiqish) davri, sifati, holati va xo'jalikda ishlatish muddati, ularning oziqlantirish va saqlash usuliga bog'liq bo'ladi.



3.3.1 – rasm. Tovuqlarni oziqlantirish jarayoni\*

\*Manba: “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi

Tuxum beruvchi tovuqlar boshqa hamma qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan to'liq qiymatli oqsillarni ko'p yetishtiradi. Tovuqning 1 yillik tuxum mahsuldorligi 250 dona bo'lsa, 1 kg tirik vazni hisobiga 875 g oqsil ishlab chiqaradi. 1 yilda 5000 litr sut beradigan sog'im sigirni 1 kg tirik vazniga 275 g oqsil tug'ri keladi.

Tovuqlar ratsionida almashinuv energiyasi, xom protein, aminokislotalar, xom yog', xom kletchatka, mineral moddalar ya'ni asosan kul reaksiyasi va vitaminlar miqdori nazorat qilinadi.

Parrandalar ratsionida almashinuv energiyasi me'yorda bo'lmasa mahsulot birligiga sarflanadigan oziqa miqdori oshib ketadi. Parrandalar almashinuv energiyasini hayotini saqlash, tuxum hosil bo'lish, o'sish, rivojlanish va yog' hosil qilishi uchun sarflaydi.

Xayotini saqlash uchun sarflanadigan energiya saqlash usuli va tirik vazniga bog'liq bo'ladi. Tovuqlarni polda guruhlarda saqlaganda kataklarda saklanganga nisbatan ko'p sarflanadi.

Tuxum beruvchi tovuqlarni yuqori energiyaga ega bo'lgan ratsion bilan oziqlantirganda energiya almashinuvi buziladi va jigarda yog' to'planishi 2-5 marta oshadi, suyib ko'rilganda jigar och qo'ng'ir yoki sariq rangda bo'ladi. Bu vaqtda boshqa a'zolarida ham yog' to'planadi, tuxum berish darajasi 30 - 40% kamayib, tuxumning hajmi kichrayadi. Bunday vaqtda oyiga 2 marta 1 kg omixta yemga 1,8 g xolin, 11 % xb vitamin Ye, 13 mg vitamin 12 qo'shib berish lozim.

Tovuq tuxumining umumiy og'irligini 58% yoki 32% sarig'i 10% ni po'stlog'i tashkil qiladi. Tuxum oqining tarkibida 87% suv 12% oqsil, yog', karbon suvlar va boshqa moddalar 7% ni tashkil qiladi. Tuxum sarig'ida esa 66% suv, 13% oqsil, 10,5% yog', 10,5% mineral moddalar mavjud. Demak, 1 dona tuxum 56 g bo'lsa 6 - 7 g oqsil bo'lar ekan, buning uchun tovuq ratsionda 12 - 17 g xom protein qabul qilishi kerak. Bundan tashqari tirik vaznini saqlash uchun ham protein zarur.

Tuxum beruvchi tovuqlar organizmida modda almashinuvining me'yorda bo'lishi uchun mineral moddalar katta rol o'ynaydi. Shuning uchun tovuqlar ratsionida mineral moddalarni nazorat qilish kerak. 1 dona tovuq tuxumida 2 gr Sa, 0,12 gr R, Md - 30 mg, Sa - 70 mg bo'ladi. bundan tashqari 0,7 mkg Mp bor. Tovuqlar ratsionining asosiy qismini don ozuqalar tashkil qiladi. Bu ozuqalar tarkibida Sa kam, R ko'p bo'ladi. Rasion tarkibidagi kalsiy va fosfor nisbatini to'g'rilash maqsadida omixta yem tarkibiga 7% o't uni va bundan tashqari bo'r,

chig'anoq uni, oxak va boshqa kalsiyga boy moddalar qo'shiladi. Kalsiy yetishmagan vaqtda tuxum po'chog'i tez sinadigan bo'ladi, xatto po'choqsiz pardada tuxum tug'ishi ham mumkin.

Kalsiy miqdori me'yordan oshib ketsa ham tovuqning ishtahasi yuqoladi, oriqqlaydi va tuxum berish darajasi pasayadi. Tuxum beruvchi tovuqlar uchun tayyorlangan omixta yem tarkibida 3,1% kalsiy va 0,7 % fosfor bo'lishi kerak.

Marganes elementi yetishmasa modda almashinuv jarayoni pasayadi, tuxum inkubatsiyadan chiqmaydi. Shuning uchun bu element nazorat qilinadi, lekin bu elementga bo'lgan talab don ozuqalar bilan to'lig'icha qondiriladi.

Osh tuzidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Agar tarkibida 1% osh tuzi bo'lgan omixta yem bilan tovuqlarni oziqlantirib, ichimlik suvi yetishmagan vaqtda ko'chli zaharlanish bo'lishi mumkin.

Vitaminlar parrandalar organizmida energiya bermasada, moddalar almashinuvida ishtirok etib katalizatorlik vazifasini bajaradi.

Vitamin A yetishmaganda shapko'rlik va boshqa kasalliklar kelib chiqadi. Vitamin D quyosh nurida teri osti bezida sintezlanib, organizmda mineral moddalar almashinuvi, aminokislotalarning ta'sir kuchini boshqaradi. Shuning uchun kataklarda saqlangan tovuqlarda bu vitamin yetishmasligi mumkin. Bu vaqtda suniy vitamin qo'shib beriladi. Bulardan tashqari barcha suvda va yog'da eruvchi vitaminlarni ham nazorat qilish zarur.

Vitamin D tuxumning otalanish darajasiga ta'sir qiladi. Agar 1 kg ozuqa tarkibida 1160 XB vitamin D bo'lsa, tuxumdan jo'ja ochib chiqish 91% ni tashkil qiladi va bu ko'rsatkich 190 XB ga kamaysa jo'ja ochib chiqish 44% ga tushadi.

Vitamin K ham tuxumning inkubatsiya sifatiga ta'sir ko'rsatadi. shuning uchun tuxum beruvchi tovuqlarning ratsionida 1 kg ozuqada 15-20 mg vitamin K bo'lishi lozim. Buning uchun omixta yem tarkibiga 3-5% o't uni qo'shilsa bu vitamining bo'lgan talab qondiriladi.

Vitamin V guruhi aloxida rol o'ynaydi. Bu vitamin yetishmaganda tuxumning inkubatsiya sifati pasayib, ochib chiqqan jo'janing o'sish va rivojlanishi past bo'ladi.

Parrandalarda 3 ta oziqlantirish tipi mavjud:

a) quruq tip oziqlantirish - bunda tovuqlar uchun ratsion tuzilmaydi, to'yimlilik moddalarga bo'lgan talabi 100 g ozuqalar aralashmasida yoki omixta yemda tenglashtiriladi.

b) aralash tipdagi oziqlantirish - bunda 1 boshga ratsion tuzilib, shu ratsionga don va boshqa oziqalar qo'shib beriladi.

d) Ho'l tip oziqlantirish - bunda namlab yoki namligi yuqori oziqalarga aralashtirib beriladi. Bu tip oziqlantirishda oziqani tayyorlab shu kunning o'zida ishlatish lozim aks holda achib qoladi.

Tuxum beruvchi tovuqlarni oziqlantirganda omixta yem tarkibidagi ayrim zaharli moddalar saqlovchi oziqalar miqdoriga e'tibor berish lozim. Paxta kunjarasi va shroti gossipoldan tozalanishi lozim.

Zig'ir kunjarasini omixta yemga qo'shishdan oldin sinil kislotasi miqdorini e'tiborga olish lozim.

Shrot va kunjara qo'shilgan omixta yem bilan oziqlantirishdan avval 5% tovuqni oziqlantirib keyin butun podani oziqlantirish lozim.

Kataklarda saqlanadigan tovuqlarni oxurlarda oziqlantiriladi, oxurlarga yem me'yori bilan kelib turadi, sug'orish hohlaganicha bo'lib, toza suv bilan ta'minlanadi.



3.3.2 – rasm. Lomann tradision krossi\*

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

Bu kross tovuqlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari buyicha baholanganda ular 140-150 kunda tuxum berishining yuqori nuqtasi 90-92% bo'lib, 12 oyda 295 - 305 dona va 14 oyda 330 - 335 dona tuxum beradi.



### 3.3.3 – rasm. Lomann Broun – klassik krossi

\*Manba: “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi

Bu kross tovuqlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari buyicha baholanganda ular 140-150 kunda tuxum berishining yuqori nuqtasi 92-94% bo'lib, 12 oyda 305 - 315 dona va 14 oyda 340 - 350 dona tuxum beradi.

### **3.4. Inkubatsiya gigiyenasi va ularning hozirgi holati**

Yirik parrandachilik xo'jaliklarida parrandalar tuxumini inkubatsiya qilish keng miqyosda qo'llaniladi. Buning uchun «Universal» nomli inkubatoriya ishlatiladi. U tuxumlar joylashtiriladigan lotoklar, ventilyator va havoni almashinish, harorat-namlik talablarini o'zi boshqarish qurilmalari bilan jihozlangan. Inkubatsiya qiladigan lotoklarga tovuq tuxumidan 142 dona, o'rdaknikidan 106 dona sig'adi. Tuxum solingan lotok maxsus barabanlarga joylashtiriladi, qaysiki, xar ikki soatda avtomatik ravishda  $90^{\circ}$  ga o'zi aylanadi.

Inkubatsiyani biologik nazorat qilish bunga tuxumlarni inkubatorga qo'yishdan oldin sifatini baholash, embrionning o'sish va rivojlanishini doimo kuzatib borish, tuxumdan chiqqan jo'janing o'sish holati va sog'ligini aniqlash ishlari kiradi. Har xil turdagi parrandalarning tuxum tug'ishi kunning har xil paytiga to'g'ri keladi. Tovuqlar, kurkalar va sesarkalar ertalab va kunduzi, o'rdak esa tong azonda tug'adi. Tuxumlarning haddan tashqari sovib ketmasligi va ifloslanmasligi uchun tug'ilgan tuxumlar 2 - 3 soat ichida, o'rdaklarniki esa undan ham tezroq yig'ib olinishi lozim. Terilgan tuxumlar shu zahoti vaqtinchalik saqlanadigan (6 kundan oshmasin) omborlarga beriladi. U yerda harorat  $+8^{\circ} - 12^{\circ}\text{S}$  va nisbiy namlik 70 - 75% atrofida bo'ladi. Saralangan tuxumlar simob - kvarslı lampa, formaldegidning bug'i va boshqalar bilan dezinfeksiya qilinadi.

Inkubatsiyaga qo'yiladigan tuxumlar to'g'ri shaklda, toza, silliq, po'stlog'i yetarlicha mustahkam bo'lishi kerak. Inkubatsiyaga qo'yiladigan tuxumlarning og'irligi tovuqniki 50-58 g, o'rdakniki 70-90, g'ozniki 120-180, kurkaniki 70-90, sesarkaniki 35-45 g bo'lishi kerak. Tuxum ichidagi havo bo'shlig'ining diametri 1,8-2 sm dan oshmasligi zarur. 1 g tovuq tuxumining sarig'ida vitamin A kamida 6-8 mikrogramm, karotinsimonlar 15, vitamin  $V_2$  5-6; Kurka tuxumida esa unga nisbatan 9-11, kamida 15,6 va 7, o'rdak va g'oznikida 10-15, kamida 20 va 8-9 mikrogrammlargacha bo'lishi kerak.

Tuxumning shakli noto'g'ri, qobig'i yorilgan yoki to'liq yetilmagan, yupqa, havo bo'shligi harakatchan yoki aralashib ketgan, qon aralashgan, iflos va eski bo'lsa inkubatsiyaga qo'yilmaydi.

Inkubatsiya jarayoni vaqtida tuxumda kurtakning o'sishi maxsus asbob ovoskop bilan ko'rib boriladi. Tovuq tuxumlari chiqarish lotoklariga 19-20 kuni, o'rdakniki 25-27 va g'ozniki 20 kuni o'tkaziladi. Ovoskop qilishning birinchi martasida kurtakning o'sishi, qon tomirlarining holatiga qarab baxolanadi. Yomon rivojlanayotgan kurtakning qon tomirlari to'rlining rivojlanishi kuchsiz bo'ladi. Ikkinchi marta ovoskop qilinganda kurtak qon tomirlari tizimini rivojlanishiga qarab baholanadi. Uchinchi marta ovoskop qilinganda kurtakning rivojlanishi yaqqol ko'rinadi. Birinchi ko'rishda qon tomirlari ko'rinmasa yoki uchinchi ko'rishda to'liq qorong'i bo'lib ko'rinrsa, bunday tuxumlar lotokdan olib tashlanadi.

Inkubatsiya jo'jalarning yaxshi rivojlanishi va har xil kasalliklarga chidamli bo'lishi ularning birinchi kungi hayotiy sharoitiga bog'liqdir. Inkubatsiya davrida tuxumlar suvning bug'lanishi tufayli 11% dan 13% gacha o'z og'irligini yo'qotadi. Yo'qotilgan suvning miqdori inkubatsiyada mu'tadil rejimni saqlab turishga bog'liq. «Universal» inkubatoriyasida mikroiklim ko'rsatgichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Inkubatsiya rejimi buzilsa, ayniqsa, harorat pasaysa yoki ko'tarilib ketsa, namlik yetishmasa yoki ko'payib ketsa. embrionning o'sishi va rivojlanishini to'xtatishga, ular organizmi chidamliligining pasayishiga sabab bo'ladi. Agar tovuq tuxumiga inkubatsiyaning birinchi 2 kunligida 4 sm<sup>3</sup> kislorod kirsa, 5 kundan keyin 16,7 - 30; 10 kundan keyin 70, 14 kundan keyin 270 va 19 kundan keyin to 386<sup>3</sup> gacha kislorod kiradi. Bir vaqtda inkubatsiya davrida 3,6 - 4,5 l karbonat angidrid gazi ham chiqadi.

Tuxumdan chiqqan tovuq, o'rdak, kurka va g'oz jo'jalari bir necha soat inkubatsiyada ushlab quritaladi. Bundan keyin jo'jalar 3 guruhga - sog'lom, kamquvvat va majruhlarga saralanadi. Sog'lom jo'jalar mustahkam turadi,

### 3.4.1 - jadval

#### Tuxumni inkubatsiyaga qo'yishda asosiy mikroiklim ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar                                         | Tuxum turlari |           |           |           |
|--------------------------------------------------------|---------------|-----------|-----------|-----------|
|                                                        | Tovuq         | Kurka     | Urdak     | G'oz      |
| Inkubatsiya shkaflari:                                 |               |           |           |           |
| Tuxum to'liq to'ldirilgandagi harorat, °C              | 37,4 - 37,5   | 37,4-37,5 | 37,4-37,5 | 37,4-37,5 |
| Tuxum to'liq to'ldirilmasa harorat °C                  | 37,7 - 37,8   | 37,5-37,7 | 37,5-37,7 | 37,7-37,8 |
| Nisbiy namlik, %                                       | 48 - 52       | 56        | 48 - 52   | 48 - 52   |
| Ho'l termometr ko'rsatkichi, °C                        | 29            | 30        | 29        | 29        |
| Jo'jalarni chiqish shkaflari:                          |               |           |           |           |
| Jo'jani chiqishi uchun o'tkazgan vaqtdagi harorati, °C | 37,4 - 37,3   | 37,4-37,3 | 37,4-37,3 | 37,4-37,3 |
| Jo'jalar chiqqan vaqtdagi harorat, °C                  | 36,9          | 36,9      | 36,9      | 36,9      |
| Nisbiy namlik. %:                                      |               |           |           |           |
| Jo'jani chiqishi uchun o'tkazganda                     | 55            | 55        | 65        | 65        |
| Jo'jalar chiqqan vaqtida                               | 62 - 72       | 66 - 72   | 72 - 75   | 72 - 75   |

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

harakatchan bo'ladi, pati quruq, sezilarli qorinchasi bo'lib, og'irligi tuxumning dastlabki og'irligining 63 – 65% iga teng bo'ladi.



3.4.1-rasm. 1 kunlik jo'jalar

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

Ferma sharoitida bir kunlik jo'jalarning bir-birini cho'qib mayib - qilmasliklari uchun maxsus mashina yordamida tumshuqlarining burun teshigidan

keyin  $\frac{1}{3}$  qismi qirqiladi. Naslli xo'rozchalarning ichki barmog'ining tirnog'i kesiladi va pixi kuydiriladi. Sog'lom va baquvvat jo'jalar balandligi 18 sm va o'lchamlari 60 x 60 sm bo'lgan qutilarga joylashtiriladi. Quti to'rt qismga bo'linib, oralari to'siq bilan ajratiladi. Har bir qismiga tovuq jo'jasidan 25 bosh, o'rdak va kurkadan 15 bosh yoki g'ozdan 10 bosh joylashtiriladi. Jo'jalar saralangandan keyin o'stirishga jo'natiladi.

### 3.5. Jo'jalarni o'stirish gigiyenasi va ularning hozirgi holati

Parrandachilikni rivojlantirishda sog'lom naslli va bosh sonni ko'paytiradigan jo'jalarni o'stirish asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu davr sog'lom va yuqori mahsuldorli tovuqlarni yetishtirishga asos bo'ladi. Jo'jalar har xil yoshida alohida maxsus jo'jaxonalarda o'stiriladi. 1 kunligidan 60 kunligigacha jo'jaxonalarda bruderxauz yoki kataklarda o'stiriladi. Jo'jalarni polda boqish uchun 10 yoki 20 ming boshga mo'ljallangan jo'jaxonalar qurilib, maxsus uskunalar bilan jihozlanadi. Elektr bruderlar shiftdagi shopillarga osilib atrofi to'siladi. Har bir bruder 500 boshga mo'ljallanib, jo'jalar o'sgan sari u ham asta yuqoriga ko'tariladi.

Jo'jalarni polda saqlab o'stirilganda qat'iy ravishda ma'lum haroratni saqlab turish lozim. Buni quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

#### 3.5.1 – jadval

##### Jo'jalarni o'stirishda harorat rejimi

| Jo'jalarni yoshi, kun | Bruder tagidagi harorat 20 – 25 sm poldan yuqori, °C | Bino harorati, °C |
|-----------------------|------------------------------------------------------|-------------------|
| Bir kunlik            | 35 – 34                                              | 24 – 23           |
| 1 – 5                 | 33 – 30                                              | 22 – 23           |
| 6 – 10                | 29 – 27                                              | 22 – 23           |
| 11 – 20               | 26 – 24                                              | 22 – 23           |
| 21 – 30               | 24 – 22                                              | 21 – 28           |
| 31 – 40               | 22 – 20                                              | 20 – 18           |
| 41 – 60               |                                                      | 20 – 18           |
| 60 dan yuqori         |                                                      | 18 – 16           |

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

Bruderning chekkasida birinchi 2 kun harorat  $+33^{\circ}$  -  $35^{\circ}\text{C}$  va keyinchalik birinchi o'n kunda asta-sekin  $+3^{\circ}$  –  $3,5^{\circ}\text{C}$  ga pasaytirib boriladi. Naslli va o'sishdagi jo'jalar 2 oy mobaynida kataklarda saqlangandan keyin 4 oylik yoshigacha moslashadiganda o'stiriladi. Jujaxona uskunalar, isitish va havo kirituvchi – chiqaruvchi ventilyasiyalar bilan jihozlanadi. U yerdan polda yoki kataklarda saqlaydigan binolarga o'tkaziladi. Har safar jo'jalarni navbatdagi

binolarga uyishdan avval yaxshilab ta'mirlanadi, tozalanadi, dezinfeksiya qilinadi va shamollatiladi. Har safar jo'jalarni navbatdagi guruhlariga o'tkazishda orada sanitariya tomondan profilaktik uzilish qilinadi.

O'sishga qo'yilgan 1 kunlikdan 60 kungacha bo'lgan yoshdagi jo'jalar keng hajmli jo'jaxonalarda polda qalin to'shamada saqlansa ularni bosh soni 20 mingdan oshmasligi kerak. Bunda bino bir qancha seksiyalarga bo'linib, har bir qismda naslli jo'jalar 1000 bosh va yirik fermalarda bo'lsa 2500 boshdan joylashtiriladi. Zoogigiyenik me'yori bo'yicha jo'jalarning qalinligi har 1 m<sup>2</sup> pol yuzasiga 1 bir kunligidan 30 kunligigacha 25 bosh va 31 dan 60 kunligigacha 16 bosh to'g'ri kelishi kerak. 1 – 5 kunlik jo'jalarni bruderlar tagida saqlansa ular atrofiga to'siqlar qilinib, ichiga oxur va sug'orish idishlari qo'yiladi.

Sanoat asosida o'stirilayotgan jo'jalarni 60 kunligidan boshlab qalin to'shamali, to'r simli, orasi ochiq taxta pollarga yoki kataklarga o'tkazish mumkin. Bosh sonini ko'paytirish uchun o'stirilayotgan jo'jalarni yoz paytlarida iloji boricha keng yayratish maydoni bo'lgan uychalarda boqish mumkin.

O'sishdagi bosh son polda saqlansa har 1 m<sup>2</sup> yuzaga 61 – 150 kunligida 9 boshdan to'g'ri kelishi zarur. Ular uchun poldan 50 – 60 sm balandlikda qo'noqlar qilinadi. Qo'noq yog'ochining kengligi 4 sm va ular oralig'i 20 – 25 sm bo'lib, har bir jo'ja uchun 12 – 15 sm hisobida qilinadi. Bu yoshdagi jo'jalar saqlanadigan jo'jaxonalarning harorati kamida +14°C bo'lishi kerak. Naslli xo'rozchalar 60 kunligigacha alohida kataklarda yoki polda o'stiriladi. 60 kunligidan so'ng qalin to'shama solingan va yayratish maydonlari bo'lgan binolarda saqlanadi.

Jo'jalarni kataklarda o'stirilganda ma'lum harorat me'yori tavsiya etiladi

Jo'jalarni 2 kunligigacha havoning nisbiy namligi 65 – 70% va keyinchalik esa 55 – 60% bo'lishi hamda kunlik yorug'lik uzunligi 14 soatga teng bo'lishini ta'minlash zarur. Rus oq zotli yosh tovuqlarni boqishda bir kunligada 6 soat va 135 kunligigacha oshirib 18,5 soatga yetkazilgan vaqtda erta tuxumga kiritishga erishilgan (N.V.Picharev). Ammo bunda o'sishi sekinlashgan, tuxumning og'irligi va po'stlog'iga salbiy ta'sir qilgan. Kataklarda saqlanadigan tug'adigan tovuqlar

uchun harorat  $+16^{\circ} - 18^{\circ}\text{C}$ , nisbiy namlik 60 – 70% bo'lishi me'yor hisoblanadi. Haroratning  $5^{\circ}\text{C}$ ga pasayishi, tuxum tug'ishni 12% ga yoki haroratni  $+30^{\circ}\text{S}$  gacha ko'tarilishi esa 28 – 30% ga kamaytiradi. Kuniga o'rtacha yorug'lik kuni 13 – 15 soat bo'lgani yaxshi. Ammo buni tovuqlarni yoshi, fiziologik holati va tovuqlarni tuxumdan chiqish oyiga qarab farqlash zarur.

### 3.5.2- jadval

#### Jo'jaxonalar havosining harorati, $^{\circ}\text{C}$

| Jo'jalar yoshi, kun | Isitiladigan katakda saqlanganda |         | Isitilmaydigan katakda saqlanganda |
|---------------------|----------------------------------|---------|------------------------------------|
|                     | katakda                          | binoda  | bino ichida                        |
| Bir kunlik          | 33 - 32                          | 28 - 26 | 31 - 30                            |
| 1 - 5               | 30 - 29                          | 25 - 23 | 28 - 27                            |
| 6 - 10              | 28 - 26                          | 25 - 23 | 26 - 24                            |
| 11 - 20             | 26 - 24                          | 23 - 22 | 24 - 22                            |
| 21 - 30             | 24 - 22                          | 22 - 20 | 22 - 20                            |
| 31 - 40             | 22 - 20                          | 20 - 18 | 20 - 18                            |
| 41 - 60             | 20 - 18                          | 18 - 16 | 18 - 16                            |
| 60 kundan yuqori    | 20 - 18                          | 18 - 16 | 18 - 16                            |

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

Jo'ja go'shti yetishtirishda gigiyena talablari - ixtisoslashgan yirik xo'jaliklar bir yilda 3 mln va undan ortiq broyler yetkazadi. Bu xo'jaliklar 1 kg tirik vaznga 2,5 - 3 kg omuxta oziqa harajat qiladi. Ixtisoslashgan xo'jaliklar broyler jo'jalarni o'stirishda ishlab chikarishni tugallangan siklda ham olib borishi mumkin, ya'ni bir kunlik jo'ja olib bo'rdoqiga boqadi. Jo'jaxonalar keng hajmli «Broyler-20» komplekti bilan jihozlangan bo'ladi. Bu esa hamma jarayonlarni mexanizasiyalashtirish, oziqlantirish va mikroiklim sharoitini yaratishga imkon tug'diradi.

Jo'jalarni yoshiga qarab bruderni soyaboni tagida va jo'jaxonada ma'lum haroratni saqlab turish kerak. Masalan, 1-7 kunlik jo'jalar uchun soyabon chekkasida, to'shamadan 5 sm balandlikda harorat  $+34^{\circ} - 32^{\circ}\text{S}$  va binoda esa  $+25^{\circ} - 24^{\circ}\text{S}$  bo'lishi kerak. 8 - 14 kunligida esa nisbatan  $+32^{\circ} - 29^{\circ}\text{S}$  va  $+23 - 22^{\circ}\text{S}$ , 5 -

21 kunligida  $29^{\circ} - 25^{\circ}\text{S}$  va  $22^{\circ} - 21^{\circ}\text{S}$ , 22 - 30 kunligida  $25^{\circ} - 21^{\circ}\text{S}$  va  $21^{\circ} - 20^{\circ}\text{S}$  va 31 - 70 kunligida jo'jaxonada harorat  $+20^{\circ} - 18^{\circ}\text{S}$  bo'lishi zarur.

Jo'jalarni 4 haftaligidan boshlab, agar binoda harorat  $+18^{\circ}\text{S}$  dan dast bo'lmasa qo'shimcha isitish talab etilmaydi,. Ular 1 - 7 kunligida harorat va namlikka juda sezuvchan bo'ladi. Shuning uchun nisbiy namlik jo'jaxonalarda o'rtacha 60 - 70% atrofida bo'ladi. Jo'jalar turadigan joylarda havoning harakati 0,5 - 1,0 m/sekund, karbonat angidrid gazining miqdori 0,25%, ammiak va vodorod sulfid  $5 \text{ mg/m}^3$  dan oshmasligi kerak.

Parrandachilik xo'jaligi maydonida har hil shovqin-suronlar ko'p bo'lmasligi, ayniqsa binolar ichida shovqin 90 dB dan oshmasligi zarur.

Broylerlar o'stiradigan fabrikalarda 20 kunlikgacha jo'jalar uchun yorug'lik rejimini ma'lum darajada saqlash zarur. 20 kunlikgacha jo'jalar uchun yorug'lik kunining uzunligi - 24 soat, 21 - 40 kunligida 24 - 17 soat va 41 - 70 kunligida - 17 soat bo'lishi kerak. Qorong'i erta tushadigan bo'lsa sun'iy yorug'lik ya'ni elektr lampalaridan foydalaniladi. Jo'ja hayotining birinchi 5 kunligida har bir metr kvadrat pol yuzasiga 4 vt, 6 - 20 kunligida 2 va 21 - 40 kunligida esa  $1 \text{ vt/m}^2$  to'g'ri kelishi kerak. Oziqlantirish va sug'orish joylarida yorug'lik bir tekisda bo'lib, u 10 - 15 lyuksga teng bo'ladi. Zoogigiyenik me'yor bo'yicha  $1 \text{ m}^2$  pol yuzasiga jo'jalarni zichligi 18 boshga to'g'ri kelishi kerak. Ammo broyler jo'jalarni qalinligi qancha ko'p bo'lsa ularni o'stirishda zarar shunchalik katta bo'ladi. Shuning uchun, har  $1 \text{ m}^2$  pol yuzasiga qish paytlari 15 bosh va yozda 14 bosh hisobida saqlansa yaxshi natija beradi.

Parrandaxonalarda jo'jalarni yoshiga karab havo almashish rejimini tashkil etish kerak. Zarur havoni kiritish-chiqarish ventilyatsiyalari orqali ta'minlash mumkin. Har bir keng hajmli jo'jaxonaga MS № 5 yoki MP № 7 markali 4 ta ventilyator o'rnatiladi. Bundan tashqari mikroiklim sharoitini me'yorda ushlab turish uchun konditsioner, qish vaqtlarida kiradigan havoni isitib berish uchun KFS-8 kaloriferlari qo'yiladi.

Go'sht yo'nalishidagi jo'jalar polda, katakda va pol katakda o'stiriladi. Ularni katakda o'stirganda yoshi va zotiga qarab zichligi o'zgaradi. Broylerlarni

katakda boqilganda jo'jaxonalardan foydalanish darajasi 3 - 4 martaga, ish unumdorligi 1,4 - 1,5 martaga ortadi.

Broylerlarni boqishda boshqa joyga o'tkazilmasdan har xil katakli batareyalardan foydalanish mumkin (KBB-3, SKI-ZB, KBM-2, BGO-140 va boshqalar). Katakda harorat bruderlar tagida polda boqilgan darajada bo'ladi. Yirik broyler xo'jaliklarida har qanday bajariladigan ishlar aniq vaqtida bekami-ko'st bajarilishi, veterinariya-sanitariya jarayonlari qat'iy nazoratda bo'lishi kerak.

Parrandachilik fabrikalarida veterinariya-sanitariya sharoitlarini to'g'ri tashkillashtirish, veterinariya sanitariya kuzatuv punktini to'g'ri qurish va foydalanish, ishlab chikarish binolarida hamma sanitariya va dezinfeksiya qurilmalarini ishlatish kerak. Broyler jo'jalarini o'sish va rivojlanishini xo'jalikni veterinariya mutaxassislari, fabrikalarda esa veterinariya laboratoriyasi (oziqani to'yimlilik, ratsioni, mikroiklim sharoitini) doimo nazorat qilib boradi. Ular xo'jalikka yuqumli kasallik kirib kelmasligini, dezinfeksiya, deratizatsiya, dezinseksiya va boshqalarni vaqtida bajarib, parrandaxonalarda zoogigiyenik me'yordagi havo harorati va nisbiy namlikni ta'minlaydi. Bu quyidagi jadvalda keltirilgan.

Bir kunlik jo'jalarning sifatini, ularning tirik vazni, harakatchanligi, qorin bo'shlig'idagi tuxum sarig'ining kattaligi, par bilan qoplanganligi, oyoqlari, tumshug'i, ko'zi, kindigi, orqa chiqaruv teshigi va qanotining patlari bo'yicha aniqlanadi. Jo'jalar 8 – 10 sm balandlikdagi to'siqlik stolga erkin joylashtiriladi va diqqat bilan ko'zdan kechiriladi. Bir vaqtning o'zida ularning ovozga javobi tekshiriladi. Buning uchun barmoq bilan stolga chertiladi. Faol jo'jalar ovoz chiqqan tomonga tez e'tibor beradi va tezda yaqinlashadi. Har bir jo'jani, uning orqa pushtini bekitgan holda qo'lga olinadi, ko'rsatgich barmoq bilan jo'janing ostki tomonidan uning qorni va qorin bo'shlig'idagi tuxum sarig'ining kattaligi paypaslab ko'riladi. Jo'janing qorni yumshoq, unchalik katta bo'lmay, qorin bo'shlig'idagi tuxum sarig'i kichik bo'lishi, inkubatsiya davrida tuxumdagi oziq moddalarning kam darajada o'zlashtirgani aniqlanadi. Keyin kindigi, orqa chiqaruv teshigi, boshi, tumshug'i va ko'zi ko'zdan kechiriladi. Jo'jalarning sifatini

xarakterlovchi bir qancha belgilari yoshini o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgaradi. Dastlabki 6 soatda jo'jalar kam harakatchan bo'lib, keyin ularning harakatchanligi oshadi.

### 3.5.3- jadval

#### Parrandalarni saqlash uchun talab etiladigan zoogigiyenik me'yorlar

| Jo'jaxona              |                   |        |                     |                 |                               | Tovuqxona              |                      |                     |                 |                 |
|------------------------|-------------------|--------|---------------------|-----------------|-------------------------------|------------------------|----------------------|---------------------|-----------------|-----------------|
| Parranda yoshi, kunlik | Issiqlik harorati |        | Yorug'lik kuni,soat | Nisbiy namlik % | Bino ichidagi havo harak. m/s | Parranda yoshi, kunlik | Issiqlik harorati °S | Yorug'lik kuni,soat | Nisbiy namlik % | havo harak. m/s |
|                        | chiroq ostida     | xonada |                     |                 |                               |                        |                      |                     |                 |                 |
| 1-7                    | 30-32             | 26-24  | 15-00               | 40-50           | 0,0                           | 6-7                    | 20-18                | 10-00               | 60-70           | 0,3             |
| 8-14                   | 30-28             | 24-22  | 12-00               | 40-50           | 0,1                           | 7-8                    | 20-18                | 10-00               | 60-70           | 0,3             |
| 15-21                  | 28-26             | 22-20  | 9-00                | 50-60           | 0,1                           | 8-9                    | 18-18                | 11-00               | 60-70           | 0,3             |
| 22-28                  | 26-22             | 20-20  | 9-00                | 50-60           | 0,2                           | 9-10                   | 16-18                | 12-00               | 60-70           | 0,3             |
| 29-135                 | 20-18             | 20-18  | 9-00                | 60-70           | 0,2                           | 10-11                  | 16-18                | 13-00               | 60-70           | 0,3             |
| 136-140                | 20-18             | 20-18  | 6-00                | 60-70           | 0,2                           | 11-12                  | 16-18                | 14-00               | 60-70           | 0,3             |
| 141-147                | 20-18             | 20-18  | 6-30                | 60-70           | 0,2                           | 12-13                  | 16-18                | 15-00               | 60-70           | 0,3             |
| 148-154                | 20-18             | 20-18  | 7-00                | 60-70           | 0,2                           | 13-14                  | 16-18                | 16-00               | 60-70           | 0,3             |
| 155-161                | 20-18             | 20-18  | 8-00                | 60-70           | 0,2                           | 14-15                  | 16-18                | 17-00               | 60-70           | 0,3             |
| 162-168                | 20-18             | 20-18  | 9-00                | 60-70           | 0,2                           | 15-16                  | 16-18                | 18-00               | 60-70           | 0,3             |
| 169-175                | 20-18             | 20-18  | 9-30                | 60-70           | 0,2                           | 16-17                  | 16-18                | 18-00               | 60-70           | 0,3             |
| 175-182                | 20-18             | 20-18  | 10-00               | 60-70           | 0,2                           | 17-18                  | 16-18                | 18-00               | 60-70           | 0,3             |

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

Yoshini o'tishi bilan jo'jalarning tirik vazni sezilarli darajada o'zgarib boradi. Sog'lom jo'jalar 8 – soat davomida oziqasiz va suvsiz qoldirilganida, ularning tirik vazni taxminan 1 g. ga kamayadi. Shuning uchun jo'jalarni baxolash 6 – 24 soat oralig'ida o'tkazish yaxshi natija beradi.

Sog'lom jo'jalar ikki kondisiyaga bo'linadi: birinchi kondisiyali jo'jalar, harakatchan, ovozga tez javob beradi, oyoqlarida yaxshi turadi, qorni yumshoq, tekis, parlari yaltiroq va rangdor, ko'zlari ochiq, yaltiroq, boshi katta va keng,

tumshug'i qisqa va yo'g'on, tanasi mustahkam, tirik vazni 35g. dan kam bo'lmasligi kerak.

Ikkinchi konditsiyali jo'jalar ham o'stirishga olinadi. Bular birinchi konditsiyali jo'jalardan qornining bir oz kattaligi, kindigining diametri 2 mm dan katta bo'lmasligi va parlarini sust rangdaligi bilan farq qiladi. Ikkinchi kondisiyadagi jo'jalarning tirik vazni 32 g dan kam bo'lmasligi kerak.

Sog'lom bo'lmagan, o'stirishga yaroqsiz jo'jalar – harakatchanligi sust va xar xil nuqsonli jo'jalardir. Kam harakatchan, ovozga e'tiborsiz, oyoqlarida mustahkam tura olmaydigan, pari tanasiga yopishgan va tanasida parlari bir tekis taqsimlanmagan siyrak, yelpig'ich va boshqarish patlari osilgan, ko'zlari tiniq bo'lmagan, qorni hajmdor va qorin bo'shlig'idagi tuxum sarig'ining kattaligi sababli qorni osilgan bo'ladi, bunday jo'jalar o'stirishga qoldirilmaydi.

#### **4. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNING MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDA ZOOGIGIYENIK TADBIRLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI**

##### **4.1. Parrandalarni saqlash usullarini takomillashtirish imkoniyatlari**

Parrandachilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Yirik mexanizasiyalashgan parrandachilik fabrikasi yiliga 300 - 450 mln dona tuxum ishlab chiqadi yoki har bir tovuqdan 250 - 270 tuxum oladi. Hozirgi kunda parrandalar ikki xil usulda - yayratib va yayratilmasdan boqiladi. Yayratib saqlash usulida parrandalar polda saqlanib, chegaralangan yayratishdan foydalanadi.

Yayratilmasdan saqlanadigan parrandalar yopiq binolarda boqilib, kataklarda, (qalin to'shama, to'rli yoki ochiq yog'och pollarda ushlanadi. Parrandaxonalarni loyihalash va qurish hamda mahsulot parrandalardan foydalanish mavjud texnologiyani loyihalash me'yorlari asosida bajariladi.

Parrandachilik xo'jaliklarida saqlashni qaysi usulidan foydalanishni xo'jalikning yo'nalishi, iqtisodiy tomondan samara berishi va iqlim sharoitiga qarab belgilaydi.

Parranda go'shti va tuxum ishlab chiqarish jarayoni xo'jalikning yo'nalishi va ixtisoslashishiga bog'liq. U yopiq bo'lishi mumkin, bunda hamma texnologik jarayonlar bir xo'jalikda tugatiladi. Bunda bitta ixtisoslashgan xo'jalikda yil davomida uzluksiz ravishda tuxum va broyler go'shti ishlab chiqariladi. Tuxum ishlab chiqarish jarayoni inkubatsiyadan boshlanib, bir kunlik jo'ja, jo'jani o'stirish, yil davomida bosh sonni to'ldirish, asosiy mahsulot beradigan parrandalarning sonini ko'paytirishga qaratiladi. Yopiq holdagi ixtisoslashgan korxonalardan broyler-jo'ja go'shti, o'rdak va kurka go'shti yetishtirishda ham foydalaniladi. Inkubatsiya tuxumini olish, uni inkubatsiya qilish, o'stirish va xo'jalik ichida tug'adigan tovuqlar bosh sonini tashkillashtirish tashqaridan yuqumli kasalliklar kirishining oldini oladi.

Ixtisoslashgan yopiq tipdagi xo'jaliklardan tashqari, to'liq bo'lmagan texnologik ishlab chiqarish sikllaridan foydalanuvchi xo'jaliklar ham bor. Ular bir

kunlik jo'jalarni boshqa xo'jaliklardan olib, keyin o'zlari tuxum, go'sht, broyler olish uchun boqadilar.

Parrandalar qaysi bir usulda boqilmasin va qaralmasin asosiy texnologik jarayonlarni gigiyena tomondan baholash zarur.

Katta yoshdagi parrandalar polda yayratish bilan saqlanganda erkin holida harakatda bo'ladi, keragicha toza havodan nafas oladi, quyosh nuri bilan ta'minlanadi, natijada organizmda modda almashishning yaxshilanishi, tabiiy chidamlilikning oshishi, kam kasal bo'lishi kuzatiladi. Yayratilmaydigan parrandalarga qaraganda ularning tuxumlari inkubatsiyada yaxshi natija beradi, jo'jalari kam nobud bo'ladi va yaxshi o'sadi.

Parrandalarni kataklarda saqlashga o'tkazish parrandaxonalardan foydalanish maydonini 3 - 4 marta oshiradi, ammo hamma texnologik jarayonlarda (oziqlanish, qarash va saqlash) mexanizatsiya, elektrofikasiya va avtomatizatsiyani joriy qilish tufayli mehnat unumdorligi oshadi. Parrandalarni kataklarda saqlash, ayniqsa jo'jalarni o'stirishda ishonchli mikroiklim ko'rsatgichlarini muhayyo qilish, yetarli to'yimli oziqalar bilan ta'minlashni talab etadi. Bu esa ularni yaxshi o'sishi, kasalliklarga chidamli bo'lishi va xo'jalikda foydalanish davrida mahsuldorligini oshiradi.

Hozirgi kunda parrandachilik ferma va fabrikalari quyidagi o'lchamlarda qurilgan: tuxum yo'nalishida - katak va polda saqlanadigan sanoat asosida qurilgan fermalar, tug'adigan tovuq uchun 10, 15, 25, 50 va 100 ming boshga, fabrika esa 200 ming boshga mo'ljallanadi.

Parrandachilik fabrikasi yopiq siklda, tuxum yetkazsa, 200, 300, 400 va 500 ming boshga mo'ljallanadi. Go'sht yo'nalishidagi broyler jo'ja o'stiradigan ferma 30, 100, 250, 320, 500 ming va 1000000 boshga; kurka jo'jasi o'stiradigan ferma 25, 50 va 100 ming boshga; broyler - o'rdak jo'jasi 65, 125 va 250 ming boshga; go'shtga boqiladigan g'ozlar esa 10, 60 va 200 ming boshga; broyler - kurka jo'jalari yetkazadigan fabrika 250 va 500 ming; broyler-jo'ja yetkazadigan fabrika 3000, 4000, 6000 va 8000; broyler - o'rdak jo'jasi fabrikasi 500, 750 ming

va 1 va 1,5 mln. boshga va g'oz go'shti yetkazadigan fabrika 250 va 500 ming boshga quriladi.

Tovuq jo'jalari (broyler), o'rdak, kurka va g'oz jo'jalarini o'stiradigan birlashmalar hamda tuxum va go'sht yo'nalishidagi ixtisoslashgan parrandachilik xo'jaliklari, inkubator-parrandachilik stansiyalari loyihada ko'rsatilgani bo'yicha aniqlanadi.

Parrandachilik fermasi, ayniqsa, parrandachilik fabrikasi har ehtimolga qarshi ma'lum maydonda, aholi yashash joylaridan uzoqda, zooveterinariya qoidalariga va sanitariya oraliqlariga qat'iy rioya qilingan holda qurilishi kerak.

Parrandachilik fabrikalari va fermalarini qurishda umumiy talab qilinadigan veterinariya-sanitariya qoidalari inkubatoriya va jo'jaxonalarni qurishda ham talab etiladi. Veterinariya inshootlari so'yish sexi va util sexlari shamol yo'lga qarab hamma binolardan keyinda quriladi.

Parrandachilik fabrikalari va fermalarini qurishda xo'jaliknn har xil yuqumli kasalliklardan saqlash tadbir-choralariga to'liq amal qilish zarur. Shuni e'tiborga olib loyihalash va qurish davrida sektorlarga bo'linadi, ya'ni: parrandachilik sektori, qaysiki, bunda parrandalarni saqlaydigan hamma binolar, inkubatoriya va boshqarish-xo'jalik sektori bo'ladi. Yirik ixtisoslashgan xo'jaliklarda alohida zonalarga: ona tovuqlar saqlash hududi, inkubatoriya va jo'jaxonalar bor hududga bo'linadi.

Parrandachilik xo'jaliklarining atrofi kamida 2 m balandlikda devor bilan o'ralishi kerak. Ona tovuqlar sexi va o'sishdagi jo'jalar saklaydigan hudud sim to'r bilan o'raladi. Xo'jalikka kiradigan yagona yo'lga darvoza kengligida dezobaryer qilinib, usti ayvon bilan yopiladi. Xizmatchilarning kirish yo'li dezgilamlar bilan jihozlanadi.

Tovuqlarni pol ustida qalin to'shamada, axlatlari yig'iladigan to'r pollarda yoki orasi ochiq taxta pollarda saqlanadi. Katta yoshdagi parrandalar va o'sishdagi jo'jalarni qalin to'shamada saqlanganda parrandaxonaning pollari avvaldan tayorlangan bo'ladi. Toza, quruq va zichlangan 1 m<sup>2</sup> polga avval 0,7 - 1,0 kg ohak sepiladi va ustidan 6 - 8 sm qalinlikda to'shama to'shaladi. Keyin zaruriyat

tug'ilganda boshqa yangi to'shamaga almashtiriladi. Almashtirilmaydigan to'shamani qalinligi jo'jalarni tagida 15 - 20 sm, katta tovuqlarni tagida esa 20 - 25 sm bo'ladi. O'rtacha yillik to'shamaning miqdori har bir tovuqqa: torf tolasi 12 - 15 kg, kesilgan poxol 18 - 20 kg, yog'och qirindisi 9 kg ga tug'ri keladi. Torfli to'shama boshqa to'shamalarga nisbatan ammiakni 7 marta, karbonat angidrid gazini 6 barobar va namlikni 3 barobar ko'p yutishi aniqlangan (A. K. Danilova). To'r yoki orasi ochiq qilingan pollarni oxirgi romlari olinadigan bo'ladi. Turli romlar poldan 40 - 60 sm balandlikda qo'yilgan qo'ygichlarga o'rnatiladi. Parrandalar tezagi taxtalar oralig'idan yoki to'r teshiklaridan polga tushadi.



#### **4.1.1 – rasm. Tovuqlarni to'r pollarda saqlash\***

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi

Janubiy hududlarda parrandalar yengil-yelpi qilingan oldi ochiq atrofi o'ralgan binolarda saqlanadi. Parrandachilik fabrikalarida jo'jalar ko'pincha oddiy uychalarda o'stiriladi. Bu uychalar 100 m uzunlikkacha bir - biri bilan ulanadi. Ularga parallel qilib tarnovsimon oxur va sug'orish idishlari o'rnatiladi. Parrandaxonani ochiq bostirma shaklida qurib, atrofiga yengil devor qilinadi. Bu bostirmaning poli metall to'rdan qilinib, ular romlarga tortiladi. To'r tagi 80 sm pastlikda tuprog'i zichlangan bo'ladi. Bunday parrandaxonaning old tomoni sim

to'r bilan o'raladi. Uzunasidagi devor bo'yicha oxurlar, uyalar o'rnatiladi. Bu esa oziqa tarqatish va tuxumni terishda ichkariga kirib yurmaslikka imkon beradi. Tarnovsimon sug'orgichlar parrandaxonani old tomoniga o'rnatiladi. To'r tagiga tushgan axlatlar yil davomida 1 - 3 marta tozalanadi.



#### **4.1.2–rasm. Tovuqlarni polda saqlash.**

\*Manba: “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi

Naslli parrandalarni saqlash uchun maxsus seleksion parrandaxonalar quriladi. Uning har ikkala tomoniga kengligi 3,5 metr bo'lgan joy qilinadi. Parrandaxonaning poli 3,5 x 2 m qilib bo'linadi. Har bir xo'rozga 10 tovuq, 8 - 10 kurka, 5 - 8 o'rdak yoki 3 - 5 g'oz berkitiladi. Shunday usulda saqlanganda alohida parrandalarning mahsuldorligi ortadi. Har bir tovuqning tuxumi nazorat uyalarida hisoblanadi.

Naslli va tovar yo'nalishidagi parrandalarni o'stirish va saqlashni to'g'ri tashkillashtirishda mikroiklim sharoitini barpo etish juda katta ahamiyatga ega. Harorat, namlik va yorug'lik rejimi parrandalar uchun to'yimli oziqalar bilan ta'minlanishi bilan teng bo'ladi.

Keng hajmli parrandaxonalar isitish, ventilyasiya tizimlari bilan jihozlanadi va havoning sovuq vaqtlarida ham bino havosi harorati  $+14^{\circ}$  - $16^{\circ}\text{S}$  va nisbiy namligi 60 – 70% da saqlanadi. Guruh holida o'stiriladigan tovuqlar 1250 boshdan alohida bo'limda saqlanadi. Tug'adigan tovuqlarni polda saqlaganda tabiiy iqlim sharoitiga qarab havoning sovuq vaqlarida har 1 kg tirik vazni hisobiga  $1,5 - 1,8 \text{ m}^3$  toza havo yuboriladi, issiq paytlarda esa  $5,9 \text{ m}^3$ , kataklarda saqlansa sovuq vaqtda  $1,4$  dan  $1,6 \text{ m}^3$  va issiq vaqtlarda esa  $5,3 \text{ m}^3$  havo yuboriladi. Sovuq vaqtlarda parrandaxonalarda havoning harakati  $0,3 \text{ m/sek}$ , issiq vaqtlarda esa  $1,2 \text{ m/s}$  bo'lishi kerak.

Katta jo'jalarni o'stirishda kunning yorug' vaqti parrandaxonalarda har haftada 1 soatga kamayib boradi. 16 haftaligida parrandalarga yorug'lik 8 soat, tuxum tug'ishni boshlagandan boshlab, ya'ni 150 - 180 kunligida yorug'lik asta-sekin ko'paytiriladi. 14-16 oyliyida yorug'lik berish 12-16 soatga yetkaziladi. Parrandaxonalarda tabiiy yorug'lik ya'ni yorug'lik koeffitsiyenti 1:8 - 1:10, sun'iy yorug'lik  $4 - 5 \text{ Vt/m}^2$  yoki 12 - 16 lk, kunduzgi lampalar bilan yoritilsa 50 lyuksga teng bo'lishi kerak.

Yirik parrandichilik fabrikalari va fermalarida tuxum yetishtirish tovuqlarni kataklarda saqlash bilan bog'liqdir. Olimlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, katta yoshdagi jo'jalarni kataklarda saqlaganda erkin holida yurganlarga qaraganda o'sishi tezlashar ekan. Kataklarda jo'jalarni pati tez chiqib va ularni tullashi 15 kun oldin tugaydi. L. K. Danilova va boshqalarni aniklashicha, shu yoshdagi jo'jalarni kataklarda saqlaganda gaz almashishi ancha intensiv bo'lar ekan.

Parrandalarni o'stirishda har xil turda qilingan qavatli-qatakli batareyalardan foydalaniladi. Ixtisoslashgan ferma va fabrikalarda 1 kunlikdan 60 kunlikkacha jo'jalarni, katta yoshdagi jo'jalarni va tug'adigan tovuqlarni saqlash uchun katakli batareyalardan foydalaniladi. Ishlab chiqarishda ko'pincha 1 - 30 kunlik jo'jalarni saqlash uchun besh qavatli KBE-1 katakli batareyalardan foydalaniladi. Jo'jalar keyingi yoshlarida 31 - 60 kunligida yana ham mukammallashtirilgan KBM-2, KBM-2A, KBM-2B va boshqa katakli

batareyalarga o'tkaziladi. 61 - 140 kunlik broyler jo'jalarni saqlash uchun KBA katakli batareyalardan foydalaniladi. Uch qavatli KBS-3 va bir qavatli BGO - 140 lardan boshqa katakka o'tkazmasdan bir kunlik jo'ja 140 kunligigacha boqiladi. Har bir yoshdagi jo'jalar uchun ma'lum o'lchamdagi kataklar qilinadi.



#### **4.1.3 – rasm. Tovuqlarni qavatli kataklarda saqlash**

Katta yoshdagi tug'adigan tovuqlar uchun yakka yoki guruh holida saqlaydigan kataklardan foydalanib, qavat-kavat qilib birlashtiriladi. Bunday kataklarning poli va devorlari sim to'rlardan panjaralar qilinadi. Kataklarning shifti xizmatini tovuqlar chiqindilarini chiqaradigan transporterlarning pastki yuzasi bajaradi. Poli kataklarning old tomoniga qarab qiya qilinadi va tuxum bemalol yumalab keladi. Tug'adigan tovuqlar uchun kletkali batareyalardan KBN-1 eng ko'p ishlatiladi. Bu to'rt qavatli batareyada oziqa tarqatish, tovuqlar tagini tozalash, tuxumni yig'ishtirish jarayonlari oziqa tarqatgichning bir sikl harakatida bajariladi. Ko'pchilik parrandachilik fabrikalarida besh qavatli batareyalar o'rnatilib, oziqa tarkatish o'zi yuradigan oziqa tarqatgichlar yordamida bajariladi. Bunda tuxum yig'adigan mashina ham yuradi. Ular go'nglarni chiqaradigan maxsus uskuna bilan ham ta'minlangan.

Tovuqlarni guruhlarda saqlash kataklarida zichlik me'yori ma'lum darajada belgilangan. 1 - 30 kunlikkacha yoshdagi parrandalar har bir katakda 22 ta, 31-60 kunligi 11 ta, 61-140 kunligi 8 ta, katta tovuqlar 6 ta saqlanadi. Keyingi yillardagi ilmiy-amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki keng hajmli parrandaxonalarda bir qavatli katakli batareya OBN dan foydalanish maqsadga muvofiq ekan. Bu kataklarning afzallik tomoni shundan iboratki, ishlab chiqarish jarayonlarining hammasini bajarishda to'liq mexanizasiyani joriy qilish mumkin. Bularning hammasi yuqori mahsuldorlik va parrandalarni sog'lom saklash va ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasayishiga imkon tug'diradi.

Bir qavatli OBN batareyalaridan foydalanishda parrandalarni polda saqlaganga nisbatan ikki barobar ko'p joylapggiriladi va bunda mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarish madaniyati ortadi.

To'rt qatorli bir qavatli katakli batareyalar to'liq mexanizasiyalashgan komplekt jihozlardan iborat qilib ishlab chiqariladi. Kataklarni joylashtirish va o'rnatish har xil kenglikdagi ishlab chiqarish binolarida bir xil bo'lmaydi. Masalan, 12 m kenglikdagi binoda to'rt batareyadan va 18 m kenglikdagi binoda esa olti batareyadan komplekt qilinadi. Batareyalarga 3800 boshgacha tovuq joylashadi. Har bir batareya 24 katakdan iborat bo'lgan seksiyadan iborat bo'lib, har bir katakka uchtdan tovuq joylashtiriladi.

#### **4.2. Tovuqlarning tuxum mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari**

Tuxum yo'nalishidagi parrandachilik korxonalarida texnologik ish jarayonlari sanoat asosidagi tovuqlar podasi bosh sonini yil davomida to'ldirishga asoslangan bo'lib, bu yil davomida bir me'yorda tuxum ishlab chiqarishning sharti hisoblanadi.

Parrandachilik korxonasi qanchalik katta bo'lsa, u tovuqlar podasini shunchalik tez to'ldiradi va bir me'yorda tuxum yetishtiradi.

Tovuqlar podasini to'ldirib borish uchun jo'ja ochirish va o'stirish yil davomida amalga oshiriladi.

Parrandachilik korxonalarida va boshqa xo'jaliklarda iste'mol uchun tuxum yetishtirishda odatda duragay tovuqlar asraladi.

Iste'mol uchun tuxum yetishtirish maqsadida odatda ularning tuxumdorligidan yil davomida foydalaniladi, bu taxminan tovuqlarning 17 oylik yoshiga to'g'ri keladi. Ana shu yoshidan keyin tovuqlar guruhi podadan chiqarilib, go'shtga topshiriladi va katta yoshdagi parrandalardan bo'shagan xonalar va jihozlar tozalanadi, yuviladi va dizenfeksiyalanadi. Parrandalarning yangi guruhini olishdan oldin xona ma'lum vaqt davomida parrandasiz qoldiriladi. Buni profilaktik tanaffus davri deb yuritiladi. Profilaktik tanaffusning minimal davomiyligi parrandani asrash usullari va uning yoshiga bog'liq bo'lib, u quyidagicha bo'lishi kerak. Yosh parrandalarni hohlagan usulda o'stirishda 9 haftagacha – ikki hafta davomida; yosh parrandalarni 9 haftadan ortiq o'stirishda va katta yoshdagi parrandalarni batareyali kataklarda asrashda – uch hafta, yerda asrashda – to'rt hafta.

Tuxum yo'nalishidagi parrandachilik korxonalarida tuxum yetishtirish sexi xo'jalikning asosi hisoblanib, bunda sanoat podasidagi tovuqlarning o'rtacha yillik bosh soni bilan shu korxonaning ishlab chiqarish quvvati aniqlanadi. Barcha sexlarning kattaligi korxonaning ishlab chiqarish quvvatiga bog'liq bo'lib, u sanoat asosidagi tovuqlar podasi sexining bir teksda ishlashini ta'minlashi kerak.

Yirik parrandachilik korxonalarida tuxum yetishtirish sexlari bir qancha bo'lishi mumkin bo'lib, ular parrandachilik ishlab chiqarish bir qancha ixtisoslashgan korxonalarni o'z ichiga olishi va podani to'ldirish birlashmasi jo'jalarni boshqa jo'jalardan olishi mumkin.

Sexning yoki parrandachilik korxonasining ishlab chiqarish rejasi har bir parrandaboqar va brigadalar uchun belgilangan rejalar asosida tuziladi, bularda asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari aks ettiriladi. Bu rejalarda tovuqlarning bosh sonini to'ldirish muddatlari, ulardan foydalanishning davomiyligi, parrandalarning oylik mahsuldorligi va bosh sonini saqlash ko'zda tutiladi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvatini o'zgartirmay turib tuxum yetishtirishni ko'paytirish bilan tovuqlarning tuxumdorligini oshirish va ularning bosh sonini to'liq saqlashga erishish mumkin.

Tovuqlarni juda talabchanlik asosida podadan chiqarish ularning o'rtacha tuxumdorligini oshirishga olib kelishi mumkin, ammo bu tuxum yetishtirish miqdorini kamayishiga sabab bo'ladi.

Tovuqlarning bosh soniga tuxum mahsuldorligini saqlash uchun jami tuxum miqdori va tovuqlarning ma'lum davrdagi o'rtacha bosh sonini bilish kifoya. Parrandalarning o'rtacha bosh soni jami parranda kunlarini kalendar kunlari miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Har bir tovuqning o'rtacha tuxumdorligi jami yetishtirilgan tuxum miqdorini tovuqlarning o'rtacha bosh soniga bo'lishda olingan bo'linmaga teng.

Parrandaning tuxumdorligi foiz hisobida ifodalanadi. Buning uchun jami yetishtirilgan tuxum miqdori 100 ga ko'paytiriladi va ko'paytma parranda kunlariga bo'linadi. Parrandaning tuxumdorligi hohlagan muddatda hafta va oy hisobida ifodalanadi. Parrandaning tuxumdorligi dona hisobida o'rtacha. Oylik, chorak va yillik deb ataladi.

Tovuqlarning bosh soni va mahsuldorligi oylar bo'yicha namunali normativlaridan xo'jalikning aniq sharoitlari ko'zda tutilganicha parrandlarning erishilgan mahsuldorligi oziq bilan ta'minlanganligi, texnika bazasining ahvoli va boshqalar ushbu korxona uchun rejali normativlar bo'lib qoladi.

Tovuqxonada yilning boshida mavjud tovuqlarning yoshi yillik tuxum ishlab chiqarish darajasiga katta ta'sir qiladi, chunki ularning tuxumdorligi yoshi o'tishi bilan asta-sekin kamayib boradi va tovuqlarning bosh soni ham podadan chiqarilishi sababli qisqarabadi. Tovuqlardan foydalanish muddati bir yil bo'lsa, tovuqxonada profilaktik tanaffusga amal qilinmaganda eng ko'p tuxum olishga erishish mumkin. ammo o'rtacha bosh soniga to'g'ri keladigan yuqori darajadagi tuxumdorlik jami tuxum ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmaslik mumkin.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni rejalashtirishda va iste'mol qilinadigan tuxumlarni ishlab chiqaradigan sexlarning ishini tahlil qilishda jami tuxum mahsuloti va tovuqlarning o'rtacha bosh soniga to'g'ri keladigan tuxumdorlik ko'rsatkichlaridan tashqari yana quyidagilar ishlatiladi.

Tovuqlar bosh sonining ko'paytirilishi, har bir parranda o'rni hisobiga tuxum ishlab chiqarishning oshishi, dastlabki bosh soniga to'g'ri keladigan tuxumdorlik parrandalar o'rnidan foydalanish prorenti va boshqalar.

Tovuqlar bosh soninig ko'payishini aniqlash uchun 5 oylik tovuqlarning katta yoshdagi podaga ko'chirgandagi umumiy soni ularning o'rtacha bosh soniga bo'linadi.

Bu ko'rsatkichni umumiy sex uchun hisoblash maqsadga muvofiqdir. Bu ko'rsatkich ayrim tovuqxonalar uchun hisoblaganda qiyinchilik bilan solishtiriladigan ma'lumotlar hosil bo'ladi. Bir parranda o'rni hisobiga tuxum ishlab chiqarish jami tuxum miqdorini parranda o'rni miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Parranda o'rnida foydalanish ko'rsatkichi o'rtacha parranda bosh sonini parranda o'rni miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

Tovuqlarning tirik vazni muhim ko'rsatkich bo'lib, zot, krosslarning andoza ko'rsatkichlari mavjud. Jo'jalarni o'stirish jarayoni va tovuqlarni boqish jarayonlariga rioya qilish kerak.

Tovuqlarning tirik vazni keyingi haftalar oylarida oz bo'lsada ko'payib borgan, "Lomann braun-klassik" tovuqlarida 30-80 haftaligida 145,5 yoki 7,72 foizga, "Lomann Sendi" tovuqlarida esa bor yo'g'i 107,0 g yoki 6,3 foizga

ko'payganligi, vazn ortishi "Lomann braun-klassik" tovuqlaridan 1,42 % kam bo'lgan.

80 haftaligida "Lomann braun-klassik" tovuqlari "Lomann Sendi" tovuqlarining tirik vaznidan 279,5 g yoki 14,82 foizga yuqori bo'lganligi kross tabiatiga xos bo'lib andoza talablariga javob beradi.

Tovuqlarning tuxum mahsuldorligi ularning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Tovuqlarning tuxum mahsuldorligi ularning zoti, zotdorligi, yoshi, oziqlantirish va saqlash omillariga bog'liq. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'ramiz.

#### 4.2.1- jadval

##### Tovuqlarning tuxum mahsuldorligi

| Ko'rsatkichlar            | Tovuqlar             |              |
|---------------------------|----------------------|--------------|
|                           | Lomann braun-klassik | Lomann Sendi |
| Tuxum mahsuldorligi, dona | 287,5±1,58           | 299,4±0,72   |
| Tuxumning vazni, g        | 63,9±1,41            | 62,6±0,28    |
| Tuxum massasi, kg         | 18,37                | 18,74        |

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi ma'lumotlari

4.2.1-jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, "Lomann Sendi" tovuqlari "Lomann braun-klassik" tovuqlariga nisbatan yil davomida 11,9 dona ko'p tuxum bergan yoki u 4,05 foizni tashkil etadi. Tuxumning o'rtacha og'irligi "Lomann braun-klassik" tovuqlarida o'rtacha 1,3 g "Lomann Sendi" tovuqlarinikidan og'irroq bo'lgan. Tuxum massasida guruhlar o'rtasida katta farq bo'lmay 0,37 kilogrammni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda tuxumdorlik va tuxum massasi bo'yicha "Lomann Sendi" tovuqlari ustun bo'lib, bozorda iste'molchilarning oq rangdagi tuxumlarni suyib iste'mol qilishlari hozirgi sharoitda "Lomann Sendi" tovuqlarini urchitishni taqazo qiladi.

**Tovuqlarning tuxum mahsuldorligi**

| Tovuqlarning<br>raqami | Lomann braun-klassik  |                       | Lomann Sendi          |                       |
|------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
|                        | Tuxumdorligi,<br>dona | Tuxumning<br>vazni, g | Tuxumdorligi,<br>dona | Tuxumning<br>vazni, g |
| 1                      | 280                   | 63                    | 305                   | 62                    |
| 2                      | 290                   | 62                    | 300                   | 63                    |
| 3                      | 288                   | 64                    | 290                   | 64                    |
| 4                      | 280                   | 65                    | 295                   | 63                    |
| 5                      | 285                   | 66                    | 288                   | 62                    |
| 6                      | 290                   | 63                    | 305                   | 60                    |
| 7                      | 285                   | 64                    | 303                   | 64                    |
| 8                      | 288                   | 63                    | 306                   | 63                    |
| 9                      | 290                   | 65                    | 399                   | 62                    |
| 10                     | 285                   | 65                    | 305                   | 63                    |
| 11                     | 290                   | 64                    | 306                   | 64                    |
| 12                     | 282                   | 63                    | 398                   | 62                    |
| 13                     | 290                   | 62                    | 301                   | 60                    |
| 14                     | 278                   | 63                    | 302                   | 61                    |
| 15                     | 290                   | 64                    | 304                   | 64                    |
| 16                     | 300                   | 65                    | 300                   | 63                    |
| 17                     | 305                   | 66                    | 300                   | 64                    |
| 18                     | 278                   | 65                    | 301                   | 62                    |
| 19                     | 291                   | 64                    | 300                   | 63                    |
| 20                     | 285                   | 63                    | 280                   | 64                    |
| O'rtacha               | 287,5                 | 63,9                  | 299,4                 | 62,6                  |

\*Manba: "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasi ma'lumotlari

#### **4.3. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning mahsuldorligini iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari**

Tajribaning iqtisodiy samaradorligi tadqiqotning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu boisdan ishning iqtisodiy samaradorligi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar uning asosida bir sentner semirish yoki tuxumning tannarxi, mahsulotni sotishdan olingan daromad, sof foyda va rentabellik darajasi aniqlandi. Xarajatlarni birinchi navbatda ozuqalar sarfini kamaytirish umumiy xarajatlarni kamaytirishga sabab bo'ladi, buning uchun ozuqalarning sifatli bo'lishi, ya'ni energiya-protein nisbatining me'yorda bo'lishi, ozuqalarning ishtaha bilan yeyishi, uning kam sarflanishini ta'minlaydi. Ikkinchidan duragay parrandalardan foydalanish natijasida har bosh parrandadan ko'proq vazn olish, har bosh tovuqdan olinadigan tuxum sonini ko'paytirishni taqazo etadi.

Iqtisodiy samaradorlikni ko'tarishda maxalliy, arzon ozuqalardan ko'proq foydalanishni taqozo etadi. Parrandachilikda don, chiqindilar, shrot, mineral premiks va vitaminli qo'shimchalar muhim o'rin tutadi. Shu boisdan har bir parrandachilik xo'jaligida kichik yem tayyorlanadigan korxona bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday sexda har doim talabdagi yemni tayyorlab berish va uni tarkibini xoxlaganda o'zgartirib turish mumkin.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda parrandachilik iqtisodiy jihatdan eng samarali tarmoq hisoblanadi. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni jadal negizga o'tkazish parrandachilikda ham tez sur'atlarda bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, qayta tashitl etilgan yirik parrandachilik fabrikalari kichik parrandachilik tipidagi korxonalardir.

Iqtisodiy jihatdan musta'qil holda tashkil etilgan parrandachilikning samaradorligi tez o'smoqda, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning tashkil etish muttasil takomillashib bormoqda.

Parrandachilikda mahsulotlarni sanoat asosida ishlab chiqarishda asosiy vazifa tarmoqning biologik imkoniyatlaridan keng va to'liq foydalanib kam

mehnat va mablag' sarflab, aholi va bozor talabini qondiradigan tuxum va parranda go'shti broyler ishlab chiqarishdmi.

Parrandachilik fabrikalarida asosan chetdan tashib keltiriladigan oзуqalardan foydalaniladi, chunki ularning o'z xo'jaliklarida oзуqa yetishtirilmaydi. Parrandachilik tarmog'i, parrandalarni takror ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot yetishtirish bo'yicha shartnoma topshiriqlarini bajarish va tabiiy- iqtisodiy masalalarni g'isobga olgan holda tuxum yetishtirish, tuxum go'sht yetishtirish va nasldor parrandachilik yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashgan.

Tuxum yetishtirish yo'nalishidagi parrandachilik tovuqchilik fermalaridagina tashkil etiladi. Tovuq tuxumi oziq-ovqat uchun mazali, iqtisodiy samarador, tovuq boqish uchun oзуqa bazasi qulay bo'lgan hududlarda keng tarqalgan. Boshqa tuxum, ya'ni o'rdak, kurka, g'oz tuxumini yetishtirish tovuq tuxumini yetishtirishga nisbatan qimmat. O'rdak va kurka tuxumiga 3-4 barobar, g'oz tuxumiga 10 barobar ko'p oзуqa birligi sarflanadi. Shuning uchun o'rdak, g'oz va kurka fermalari tuxum yo'nalishida bo'lmay, ularda go'sht yetishtirish uchun jo'jalar boqiladi. Go'sht yetishtirish yo'nalishidagi fermalarga asosan o'rdak, g'oz va kurka fermalari ixtisoslashgan. Bu yo'nalishdagi xo'jalik fermalari tovar go'sht (o'rdak, g'oz va kurka jo'jalaridan broyler) yetishtirib beradilar.

Parrandachilik xo'jaliklarida to'ziladigan texnologik loyihalar uchun tug'adigan tovuqlarni kataklarda asrashda 50, 100, 250, 300, 400 va 500 ming bosh; kichik fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish galasini chuqur to'shamada saqlashda 100000 bosh miqdorda parranda boqish tavsiya etiladi.

Maxsus loyiha bilan qurilayotgan broyler fabrikalarida 500 dan 500000 boshgacha jo'ja boqish muljallangan. O'rdak go'shti yetishtiriladigan yirik xo'jaliklar uchun 500 mingdan 1 mln boshgacha jo'ja boqishga mo'ljallangan loyihalar mavjud. G'oz va kurka boqish uchun jo'jalar 100-250 ming boshgacha, shirkat xo'jaliklar fermalari uchun esa 30 ming boshgacha parranda saqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir qishloq xo'jalik korxonasi singari parrandachilik fabrikalarining ham tashkiliy xo'jalik asoslari, ularning o'z ustavlarida aks ettiriladi.

Parrandachilikni to'g'ri tashkil etish va unda yetishtiriladigan mahsulot miqdorini ko'paytirish, fan yutuqlaridan keng foydalanishni va zooveterinariya qoidalariga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Zooveterinariya talablariga javob bermaydigan har bir tadbir poda tarkibidagi parrandalar nisbatini o'zgartirishga olib keladi. Bu borada parrandachilikda takror ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Mahsulot tannarxini pasaytirishning eng muhim yo'li ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq mexanizasiyalashtirish asosida mehnat unumdorligini oshirishdir. Izchillik bilan jadallashtirish asosida ekinlarning hosildorligini, chorvachilikning mahsuldorligini oshirish mahsulot tannarxini pasaytirish, rentabellik darajasini oshirish eng muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash mahsulot tannarxini arzonlashtirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishda aylanma vositalardan maqsadga muvofiq foydalanishning eng ahamiyati katta.

Tarmoqlarni maqsadga muvofiq ravishda ixtisoslashtirish va joylashtirish, ularni to'g'ri muvofiqlashtirish ishlab chiqarishni arzonlashtirishga sezilarli ta'sir etadi.

Fan tavsiyalarini va ilg'orlar tajribasini ishlab chiqarishga izchillik bilan joriy etish, dehqonchilik madaniyatini doimiy ravishda yuksaltirish, qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirish va ximiyalashtirish bularning hammasi, bir tomondan hosildorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan mahsulot birligiga sarf xarajatlarni keskin sur'atda kamaytiradi.

Iqtisodiy samaradorlikni ko'tarishda maxalliy, arzon oзуqalardan ko'proq foydalanishni taqozo etadi. Parrandachilikda don, chiqindilar, shrot, mineral premiks va vitaminli qo'shimchalar muhim o'rin tutadi. Shu boisdan har bir parrandachilik korxonalarida yem tayyorlanadigan korxona bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday sexda har doim talabdagi yemni tayyorlab berish va uni tarkibini xoxlaganda o'zgartirib turish mumkin.

**4.3.1- jadval****10 dona tuxum ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi tahlili\***

| Ko'rsatkichlar                       | O'lchov birligi | Lomann braun-klassik | Lomann Sendi |
|--------------------------------------|-----------------|----------------------|--------------|
| 10 tuxum tannarxi                    | so'm            | 1920                 | 1830         |
| 10 tuxumni sotishdan olingan daromad | so'm            | 2700                 | 2700         |
| 10 tuxumni sotishdan olingan foyda   | so'm            | 780                  | 870          |
| Rentabellik darajasi                 | %               | 40,6                 | 47,5         |

\*Manba: Samarqand tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

Tuxum ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi shundan dalolat beradiki, ozuqalar har ikkala guruhning bir bosh tovug'i uchun bir xilda sarflanishiga qaramasdan tovuqlarning tuxumdorligi bois 10 tuxumning tannarxi "Lomann Sendi" krossli tovuqlarida "Lomann braun-klassik" tovuqlariga nisbatan 90 so'mga arzonga tushgan, xarid bahosi har ikkala guruhda ham (2700 so'm) teng bo'lib 10 tuxumni sotishdan olingan daromad 2700 so'm dan bo'lib, sof foyda 2 nchi guruhda 36,2 so'mga yuqori bo'lgan, yoki rentabellik darajasi 6,9 % ga yuqori bo'lgan.

Samarqand tumani qishloq xo'jaligida tuxum ishlab chiqarish samaradorligi tahlilini 4.3.2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**4.3.2-jadval****Samarqand tumani qishloq xo'jaligida tuxum ishlab chiqarish samaradorligi tahlili (2011-2013 yy.)\***

| № | Ko'rsatkichlar                          | Yillar |        | 2013 yil 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +,- |
|---|-----------------------------------------|--------|--------|----------------------------------------------|
|   |                                         | 2011   | 2013   |                                              |
| 1 | Ishlab chiqarilgan tuxum, ming dona     | 354577 | 421202 | 66625                                        |
| 2 | Jami xarajat                            | 78432  | 116462 | 38030                                        |
| 3 | Jami daromad                            | 99282  | 147421 | 48139                                        |
| 4 | Jami foyda                              | 20850  | 30959  | 10109                                        |
| 5 | 1000 dona tuxum tannarxi                | 221,2  | 276,5  | 55,3                                         |
| 6 | 1000 dona tuxum sotish bahosi           | 280,0  | 350,0  | 70,0                                         |
| 7 | 1000 dona tuxumni sotishdan olgan foyda | 58,8   | 73,5   | 14,7                                         |
| 8 | Rentabellik darajasi                    | 26,6   | 26,6   | O'zgarmagan                                  |

\*Manba: Samarqand tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

4.3.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand tumanida 2013 yil 2011 yilga nisbatan tuxum ishlab chiqarish 66625 ming donaga, jami ishlab chiqarish xarajatlari 38030 mln so'mga oshgan. Tuman xo'jaliklarida tuxum ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi foydamiqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni, jami daromadning 48139 mln so'mga oshishi foyda miqdorining 10109 mln so'mga oshishiga olib kelgan. 1000 dona tuxum ishlab chiqarish tannarxi 55,3 ming so'mga, undan olingan daromad 70,0 ming so'mga oshgan. Natijada, xo'jaliklar 1000 dona tuxum sotishdan olgan foydasi 14,7 ming so'mni tashkil qilgan. Xo'jaliklarda tuxum ishlab chiqarish rentabelligi 2011-2013 yillarda o'zgarmagan ya'ni, 266 foizni tashkil qilgan.

#### 4.3.3-jadval

#### Samarqand tumani qishloq xo'jaligida tuxum ishlab chiqarish samaradorligi tahlili (2011-2013 yy.)\*

| №  | Xarajat turlari                                | Yillar             |            |                    |            | 2013 yilning 2011 yilga nisbatan o'zgarishi |       |
|----|------------------------------------------------|--------------------|------------|--------------------|------------|---------------------------------------------|-------|
|    |                                                | 2011               |            | 2013               |            | +,-                                         | %     |
|    |                                                | So'mmasi, mln so'm | Salmog'i % | So'mmasi, mln so'm | Salmog'i % |                                             |       |
| 1. | Mehnat haqqi ijtimoiy sug'urta ajratmasi bilan | 27137,5            | 34,6       | 42508,6            | 36,5       | 15371,2                                     | 156,6 |
| 2. | Oziqa                                          | 26039,4            | 33,2       | 39830,0            | 34,2       | 13790,6                                     | 153,0 |
| 3. | Amortizasiya                                   | 392,2              | 0,5        | 582,3              | 0,5        | 190,2                                       | 148,5 |
| 4. | Ish va xizmatlar                               | 8392,2             | 10,7       | 7686,5             | 6,6        | -705,7                                      | 91,6  |
| 5. | YoMM                                           | 3843,2             | 4,9        | 5357,3             | 4,6        | 1514,1                                      | 139,4 |
| 6. | Zoogigiyena xarajatlari                        | 6117,7             | 7,8        | 10481,6            | 9          | 4363,9                                      | 171,3 |
| 7. | Boshqa xarajatlar                              | 6509,9             | 8,3        | 10015,7            | 8,6        | 3505,9                                      | 153,9 |
|    | Jami xarajatlar                                | 78432              | 100        | 116462             | 100        | 38030                                       | 148,5 |

\*Manba: Samarqand tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari

4.3.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand tumani xo'jaliklarida tuxum ishlab chiqarishda 2013 yil 2011 yilga nisbatan jami xarajatlar 38030 mln so'mga yoki 148,5 foizga oshgan. Bu oshish 2011 yil 2013 yilga nisbatan mahnat haqqi ijtimoiy sug'urta ajratmasi bilan 15371,2 mln so'mga yoki 56,6 foizga, oziqa 13790,6 mln so'mga yoki 53,0 foizga, amortizatsiya xarajatlari 190,2 mln so'mga yoki 48,5 foizga, YoMMLari 1514,1 mln so'mga yoki 39,4 foizga, zoogigiyena xarajatlari 4363,9 mln so'mga yoki 71,3 foizga, boshqa xarajatlar 3505,9 mln so'mga yoki 53,9 foizga oshgan.

## **5. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK MASALALAR**

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarni tobora chuqurlashtirish siyosati turli shakllardagi xo'jalik yurutuvchi subyektlardan mavjud bo'lgan ichki resurs mehnat, yer-suv va moddiy texnikalardan samarali foydalanishda ularni tejash, resurslar bozorini tashkil etish muammolari yechimini topish, servis xizmatlari va shartnomaviy munosobatlarni yanada takomillashtirish va yaxshilash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Qayd qilingan ishlab chiqarish resurslaridan eng asosiysi yer hisoblanadi. Shuning uchun ham tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan barcha tadbirlar, resurslar samaradorligini asosini tashkil etadi.

Bozorni qishloq xo'jalik mahsulotlariga to'ldirish aholini kundalik oziq-ovqat, sanoat korxonalarini xom-ashyoga bo'lgan talabini to'la to'kis bajarish vazifalari mavjud. Ichki resurslardan to'la va samarali foydalanishni taqazo etadi.

Yer maydonlaridan unumli foydalanishga erishish omillaridan biri yer fondlaiga ekinlarni to'g'ri, ilmiy jihatdan asoslangan ketma- ketlikda joylashtirishni talab etadi. Ming afsuski yerdan foydalanishdagi almashlab ekishdek eng muhim agrotexnik tadbir inkor etilmoqda. Pirovardida respublikamizning aksariyat hududlarida yerlarning sho'rlanish darajasi va eroziyasi yildan yilga kuchayib ketmoqda. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga sarflanadigan ishlab chiqarish resurslari me'yoridan ortiqcha xarajat qilinib mahsulot tannarxini asossiz o'sishi oqibatida daromadlar kamayishiga sabab bo'lmoqda, hattoki sho'rlanish oqibatlarini tugatish maqsadida yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga milliard so'mlab mablag' sarflashga majbur bo'lmoqdamiz.

O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, jamiyat bilan tabiat bir biri bilan o'zaro aloqaga kirishadigan soha hisoblanadi. Ming yillar davomida qishloq xo'jaligi tabiatning do'sti deb hisoblab kelingan. U o'zining mohiyatiga ko'ratabiatga

juda yaqin bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida tabiat kuchlaridan keng foydalanadi va bir qarashda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda tabiatning sof, sog'lom, samarador bo'lishidan kuproq manfaatdor.

Ishlab chiqarish kuchlari uncha taraqqiy etmagan sharoitda qishloq xo'jaligi ko'proq tabiat qonunlariga bo'ysindirishgan bo'ladi va to'g'ri faoliyat ko'rsatganda bu qonunlar bo'zilmaydi. Biroq hozirgi yuz yillikda qisqa vaqt ichida axvol tubdan o'zgardi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning industrial usullarining joriy etilishi natijasida tabiat kuchlari bilan iqtisodiyotning bu tarmog'i o'rtasidagi kuchlari nisbati o'zgardi.

Murakkab va og'ir vaznli mashina texnikalarining qo'llanishi ishlab chiqarishning ximiyalashtirilishi, yerlarni meliorasiyalash, ishlab chiqarishning aynan sanoat asosidagi parrandachilik korxonalarining barpo etilishi tabiatni zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi oldida juda nochor, zaif axvolga solib qo'ydi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi tabiatni do'sti bo'lmay, balki tabiat muhitni vayron qiluvchi ta'sir tobora kuchayayotgan eng xavfli dushmaniga aylandi.

Oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o'sishiga asosan yangi mashina texnikasini kengroq qo'llash, ishlab chiqarishni ximiyalashtirish, meliorasiya tadbirlarni hisobiga foydalanilayotgan yer maydonlarini ko'proq ekspluatasiya qilish yo'li bilan erishilmoqda. Aynan azotli o'g'itlarning ortiqcha ishlatilishi ayniqsa xavflidir. Ular tuproqdagi azotni ushlab qolish qobiliyatini susaytiradi va muhitni nitratli azot bilan ifloslaydi.

Qishloq xo'jaligi sohasida atrof muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha choralarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin;

Ulardan biri inson faoliyatining tabiat xolatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini oldini olishga, ikkinchisi esa shunday ta'sir oqibatlarini bartaraf qilishga yo'naltirilgan. O'z navbatida bu guruhlarning

har biri turli yo'nalishlarga ega; texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va boshqalar.

Yuqorida qayd etilganidek, eng hosildor bo'lgan yerning yuqori qatlamini yo'qolishiga olib keluvchi suv havzalarining tuproqdagi oziqa elementlarini va o'g'itlar bilan ifloslantiruvchi tuproq kurashi (erroziyasi).

Qishloq xo'jaligi va atrof muhitni muhofaza qilish o'z-aro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z-aro aloqadorlik va o'z-aro ta'sir ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin.

Ko'pincha atrof-muhitni ifloslantiruvchi eng zararli joylarga aylangan. Atrof-muhitni parrandachilik sohasi bilan shug'ullanayotganlar ifloslantirilishi, chiqindilar, organik oqovalar, kanalizasiyadan chiqadigan oqovalar kabilar bo'lib, korxonani ifloslantirishlariga kiradi. Yoqimsiz hidlarni paydo bo'lishi, go'ng shalpog'ining oziqa qoliqlari bo'zish va hokazolar amiyak, serovodorod va boshqa moddalar hosil bo'lishiga, parrandalar sog'ligi, mahsuldorligiga salbiy ta'sir etadi. Parrandaxonada ishlovchi xodimlar sog'ligiga va har gektar yerga 4 tonna parranda go'ngi solingan maydonga boqilgan parranda o'zoq vaqt davomida yog' bosish (distrofiya) kasalligi ko'zatiladi. Nafaqat yer usti, qolaversa yer osti suvlarini ifloslanishi yuz beradi.

Joylardagi sanitariya-gigiyena holatini yaxshilashda ko'kalamxorlashtirish katta rol o'ynashi lozim. Hozirgi kunda asosan organaliptik ko'rsatkichlar bo'yicha (badbo'y o'ziga xos hidlar) quyidagi hajmdagi sanitariya himoya hududlariga tavsiya etiladi: tovuqlarda (400-600 ming) – 2.5 km.

Yangi tozalash inshootlarini qurish, ishlab turganlaridan to'g'ri foydalanishga e'tiborsizligi va beparvoligi shunga olib keladiki, har yiliparrandachilik korxonalari tomonidan tashlanadigan 5 mln m<sup>3</sup> oqova suvlarning faqat 13% tozalanmoqda.

Xar bir binoga xavo tozalagich yetkazib beruvchi KNS-12,5 kondisionerlar urnatish parranda gungini saklash va zararsizlantirishga moslashtirilgan chukurlar bulishi binolarni isitishda DKVR-<sup>4</sup>/<sub>13</sub> markali isitgichlar, Broyler-35/10kv transformatorlardan foydalanish zarur. Labaratoriyalarda o'zliksiz ravishda nafakat maxsulotlarni xar xil talofatlarga uchragan parrandalarni, chikindilarni, okova suvlarni nazorat kilib borish muximdir.

Samarqand tumanida parranda tuxumi ishlab chikarish bilan shugullanayotgan xujaliklarda va tashkilotlarda mexnatni muxofaza kilish borasida belgilab olingan reja asosida, xodimlar uchun maxsus kiyim-kechaklar, doimiy medesina, veterinariya kuriklaridan, nazoratidan utkazish, xar kuni ish boshlanishidan oldin yigilishlar utkazib xar bir xodimni aloxida ogoxlantiriladi. Belgilangan mikdorda xujaliklar va tashkilotlar tomonidan xar bir xujuliklariga nafakat jixozlarini berish, dori darmonlarni yetkazib berish, broyler jujalarni emlash, xonalarni zararsizlantirish kabi tadbirlar o'z vaktida utkazilmokda.

Har bir ishlovchi ta'minlovchi ishchi xodimlarga kiyim-kechaklar, asbob uskunalar bilan tuligicha ta'minlangan. Xo'juliklarda va tashkilotlarda ishchi xodimlar uchu ish vahtlari belgilangan bo'lib, baxtsiz hodisalar ro'y bermagan.

Bu esa xujaliklarda va tashkilotda ishni yaxshi tashkil kilinayotganligi, tartib intizomga tulik rioya kilinayotganligidan darak beradi.

Ekologik va xayot faoliyati xavfsizligi borasida utkazilayotgan tadbirlarga karamay, ayrim xollarda Kattaqo'rg'on tumanida parranda tuxumi ishlab chikarish borasida kamchiliklarga yul kuyilmokda, bu xam bulsa soxalar buyicha mutaxasis bulmagan fukarolarni ishlashi yem tayyorlash, dori-darmonlar tayyorlash, suyish, parranda maxsulotlariga kayta ishlov berish, saklash kabi ishlarni amalga oshirishda xatoliklarga yul kuyilmokda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Parrandachilik sohasi bo'yicha mavjud ma'lumotlar tahlili natijalariga asoslanib qo'yidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Samarqand tumanida 2011 yilda sabzavot yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydoni 5585 gektarni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 3951 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 1634 gektarga yoki 29,3 foizga kamaygan. 2011 yilda poliz mahsulotlari yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydoni 30 gektarni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 175 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 145 gektarga yoki 5,8 martaga oshgan. 2011 yilda g'alla ishlab chiqarish uchun ajratilgan yer maydoni 4375 gektarni tashkil etgan, 2013 yilda bu ko'rsatkich 4090 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 285 gektarga yoki 6,5 foizga kamaygan. 2011 yilda kartoshka ishlab chiqarish uchun ajratilgan yer maydoni 578 gektarni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 388 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 190 gektarga yoki 32,9 foizga kamaygan. 2011 yilda hosilli uzumzorlar 2741 gektarni tashkil etgan bo'lsa 2013 yilda bu ko'rsatkich 2967 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 226 gektarga yoki 8,2 foizga oshgan. Tuman fermer xo'jaliklari jami ekin maydoni 2011 yilda 17139,9 gektarni tashkil etib, 2013 yilda bu ko'rsatkich 17150,9 gektarni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 11,0 gektarga yoki 0,1 foizga o'sgan.

2. Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati 2011 yilda 18582791 ming so'mni tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 20597385 ming so'mni tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatani 1993996,6 ming so'mga yoki 10,7 foizga oshgan. G'allachilikda yerlarning fondlar bilan ta'minlanishi 2013 yilda 4383,6 ming so'mni, mehnatning fondlar bilan qurollanishi esa 10969,0 ming so'mni tashkil etgan. Fond sig'imi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 0,11 so'mga kamaygan bo'lsa, fond qaytimi 8,4 so'mga yoki 12,8 %ga oshgan.

3. Qishloq xo'jaligida band aholi soni 2011 yilda 15150 kishini tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 17150 kishini tashkil etgani holda 2013

yilda 2011 yilga nisbatan 13,2 foizga oshgan. 2011 yilda dehqon xo'jaliklarida bandlar soni 3214 kishini tashkil etgan bo'lib 2013 yilda bu ko'rsatkich 3468 kishini tashkil etgani holda 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 7,9 foizga oshgan.

4. "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasida parrandalar bosh soni 2011 - yilda 378,8 ming bosh bo'lsa, 2013 - yilga kelib, 460 ming boshga, ya'ni 81200 boshga ko'paydi. Tuxum beruvchi tovuqlar bosh soni esa, 2010-yilga nisbatan 3600 boshga kamaygan. Jo'jalar soni esa 151600 boshga ko'paygan. 2013 yil 2011 yilga nisbatan jami parandalar soni 81,2 ming boshga, shundan tovuqlar soni 3,6 ming boshga kamaygan bo'lsa, jujlar soni esa 151,6 ming boshga oshgan.

5. "Oxalik Lomann-Parranda" parrandachilik korxonasida 2011-yilda 73208,8 ming dona tuxum ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, 82080 ming dona, ya'ni 8087120 donaga ko'p tuxum ishlab chiqarilgan. Shu jumladan parranda go'shti 105 sentnerga ko'p ishlab chiqilgan. Korxonada, 2011 - yilda 16000 dona tuxum inkubatsiyalangan bo'lsa, 2013 - yilga kelib, bu ko'rsatkich 32560 donani, ya'ni 16560 donaga ko'p tuxum inkubatsiyalangan. O'tgan yillarga nisbadan tuxumlardan jo'ja chiqishi 6%ga oshgan. Ming dona tuxum ishlab chiqarish uchun 2013 - yilda 0,3 sentnerga omuxta yem kamaygan, 1 kg ko'shimcha tirik vazn olish uchun 0,1 sentner qo'shimcha omuxta yem sarflangan.

2013 yil 2011 yilga nisbatan jami ishlab chiqarilgan tuxum 8871,2 ming donaga, jami ishlab chiqarish parranda go'shti 105 s.ga, inkubatorga qo'yilgan tuxumlar 16560 donaga, tuxumlardan jo'ja chiqishi 6 punktga oshga, ming dona tuxum ishlab-chiqarish uchun omixta yem sarfi 0,3 s.ga kamaygan.

6. "Oxalik Lomann-parranda" parrandachilik korxonasida 2011-yilda har bir bosh tovuqdan 238 dona tuxum olgan bo'lsa, 2013-yilga kelib 270 donani tashkil etdi, ya'ni 32 donaga ko'paygan. 1 dona tuxumning ishlab chiqarish tannarxi esa 118,9 so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2011 yilga kelib 118,9 so'mga, ya'ni 66,2 so'mga oshgan, sotish narxi esa 66,2 so'mga

oshgan, tuxum ishlab chiqarish rentabellik darajasi esa 2013 yil 2011 yilga nisbatan 10,7 punktga oshgan.

1 s. go'sht ishlab chiqarish 2013 yil 2011 yilga nisbatan tannarxi 230694,7 so'mga, sotish narxi esa 236017,7 so'mga oshgan. Natijada olingan go'shtni sotishdan olingn foyda 5323 somga oshgan. Rentabelligi esa 3,1 punktga kamaygan.

7. "Ohalik Lomann - parranda" parrandachilik korxonasida iqtisodiy ko'rsatkich 2012 yilda tovuqlar bosh soni 460 ming boshga, o'tgan yillarga nisbatan 121,4%ga oshgan tuxum ishlab chiqarish esa (82080 ming dona), 112,1 % ga oshgan, 1 dona tuxumning tannarxi 158,8 so'mga to'g'ri kelgan sotish narxi esa 213 so'mni tashkil etgan.

8. Samarqand tumanida 2013 yil 2011 yilga nisbatan tuxum ishlab chiqarish 66625 ming donaga, jami ishlab chiqarish xarajatlari 38030 mln so'mga oshgan. Tuman xo'jaliklarida tuxum ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi foydamiqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni, jami daromadning 48139 mln so'mga oshishi foyda miqdorining 10109 mln so'mga oshishiga olib kelgan. 1000 dona tuxum ishlab chiqarish tannarxi 55,3 ming so'mga, undan olingan daromad 70,0 ming so'mga oshgan. Natijada, xo'jaliklar 1000 dona tuxum sotishdan olgan foydasi 14,7 ming so'mni tashkil qilgan. Xo'jaliklarda tuxum ishlab chiqarish rentabelligi 2011-2013 yillarda o'zgarmagan ya'ni, 266 foizni tashkil qilagn.

9. Samarqand tumani xo'jaliklarida tuxum ishlab chiqarishda 2013 yil 2011 yilga nisbatan jami xarajatlar 38030 mln so'mga yoki 148,5 foizga oshgan. Bu oshish 2011 yil 2013 yilga nisbatan mahnat haqqi ijtimoiy sug'urta ajratmasi bilan 15371,2 mln so'mga yoki 56,6 foizga, oziqa 13790,6 mln so'mga yoki 53,0 foizga, amortizatsiya xarajatlari 190,2 mln so'mga yoki 48,5 foizga, YoMMlari 1514,1 mln so'mga yoki 39,4 foizga, zoogigiyena xarajatlari 4363,9 mln so'mga yoki 71,3 foizga, boshqa xarajatlar 3505,9 mln so'mga yoki 53,9 foizga oshgan.

### **Olingan xulosalar asosida quyidagi takliflarni beramiz:**

1. Xo'jaliklarida chorva ozuqasi uchun ajratilgan yer maydonidan olinadigan oziqa hosildorligini oshirish.

2. Xo'jaliklarda erta bahorda hayvonlarni ko'k ozuqalar bilan ta'minlash yo'lga qo'yish.

3. Xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan harajat talab darajasidan yuqori. Xarajatlar tarkibidagi oziqa xarajatlarini kamaytirish va arzon sifatli oziqa bazasini yaratish.

4. Parrandachilik xo'jaliklarida zoogigiyenik qoidalarga rioya qilish yetarli darajada emas. Xo'jaliklarda parrandachilikda zoogigiyenik talablarini oshirish. Parrandaxonalarda zoogigiyenik sharoitlarni yaratish tuxum beradigan tovuqlarni tuxum mahsuldorligini 10,2 % ga oshirish imkoniyatini beradi.

5. Parrandalardan olinadigan tuxum mahsuldorligini oshirish. Rivojlangan mamlakatlarda tovuqlardan olinadigan tuxum mahsuldorlig 140-160 foizni tashkil etadi. Samarqand qishloq xo'jalik instituti 18 nafar professor-o'qituvchilarning DAAT programmasi asosida Germaniya mamlaktida malaka oshirganida parrandachilik korxonalarida 45000 tovuqdan ko'niga 63000 tuxum olishligini takidlangan.

Parrandalardagi mavjud irsiy imkoniyatlarni ishga soluvchi asosiy omillardan biri zoogigiyenik talablarga javob beradigan sharoitda saqlash va to'liqqiymatli oziqlantirishga e'tibor berish shart.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Veterinariya to'g'risida. 3.09.1993.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida. 30.04.1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarin hamda kichik beznis boshqa subektlarini qo'llab – quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. PQ - 75. 4.03.2000.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida. PQ - 383. 20.03.2007.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida. PQ 308, 23.03.2006.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirish rag'batlantirish kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. PQ 842. 21.04.2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida. PF-3342. 27.10.2003.
8. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: O'zbekiston, 2008.
9. Karimov I.A Jahon moliyaviy iqtisodiy-inqrozi. O'zbekiston sharoitida, uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009.
10. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohatlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng

muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Zarafshon. 19.01.2014.

11. Azimov S.G. Parrandachilikda naslchilik ishlari. –T., 1980.
12. Алиев М.Ш. Новая линия белых леггорнов с высокой массой яйца.//Зоотехния. –Москва. 2003. -№6, -С. 10-11.
13. Ermatov Yu.A. Tuxum ishlab chiqarishda istiqbolli tovuq krosslaridan foydalanish. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirishda innovasion texnologiyalarning roli. –Samarqand: Sam QXI. 2012.
14. Егоров И. Научные аспекты питания птицы. //Птицеводство. Москва,-№1. 2002. -С. 18-21.
15. Егоров И.А., Чеснокова Н.Я. Применения рапсового шрота в рационах цыплятах – бройлеров.//Птицеводство. -Москва,1990. -№9.
16. Гуца Г.Е, Выдриска А.В., Дадашко В.В. Использование меприна в рационах кур. Актуальные проблемы современного птицеводства. Украинская конференция с международным участием. – Харьков: 199. -С. 50.
17. Ismoilov A.Q., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.
18. Sheripbaeva U. Investitsiyalar – qishloq xo'jaligida tarkibiy va sifat o'zgarishlar omili. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2011. -№5
19. Ilm sari ilk qadam. Yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarining 2014-yil Sog'lom bola yiliga bag'ishlangan ilmiy konferentsiyasi materiallari. To'plam, -Samarqand: Optima print plus, 2014.
20. Jurayev F.J. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. –T.: Istiqlol, 2004.
21. Клетикова Л. Изменение белково-минерального обмена в организме птицы. //Птицеводство. –Москва, 2009. -№7. -С. 29-30.
22. Мажидов М.М., Рустамов Е.Х. (Агалик-Лохманн-Парранда. Открытое Акционерное Общество СП Узбекистан-Германия). Несушки руководство по содержанию. –Самарканд, 2011.

23. Musinov Ya.X., Chalabayev A.J. Hayvonlar organizmiga saqlash usulining ta'siri. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish istiqbollari. Ilmiy konferensiya to'plami. -Samarkand, 2010.
24. Пындак В., Саломатин Г. Кормоцех для хозяйства. //Птицеводство. -Москва, -1998. -№3. –С.35.
25. Qishloq xo'jalik fani yutuqlari-fermer xo'jaliklari istiqboliga. Professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va katta ilmiy-izlanuvchilarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. –Samarqand: Optima print plus, 2014.
26. Jo'raev SH., Kazaxboev SH., Davlatov F. Daromad va xarajatlar tahlili.. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2008. -№12
27. Xolbaev D., Bobonazarov SH. Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lash hisobi.–Samarqand: Sam QXI, 2007.
28. Sanayev G'.N. Fermer xo'jaliklarida sut-go'sht mahsulotlari harajatlarini hisobga olish, ularning tannarxni hisoblashni takomillashtirish. Monografiya, -T.: Fan, 2007. -119 b.
29. Hakimov R. O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. Monografiya, 2008.
30. Qudratov T.Q., Fayzieva N. Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi likvidlik koeffficientlarini takomillashtirish masalalari. – Samarqand: Sam QXI, 2007.
31. T., 1999. 30 b.
32. Xamroqulov B. Parrandachilikda tuxum ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2012. - №2.
33. Samarqand tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari. 2011-2013 yillar.
34. Samarqand tumani “Oxalik Lomann-parranda” parrandachilik korxonasi ma'lumotlari. 2011-2013 yillar.
35. Internet ma'lumotlari:

- 34.1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz). - axborot – talim portali
- 34.2. [www.stat.uz](http://www.stat.uz), O'z.R- Davlat statistika qo'mitasi sayti
- 34.3. [www.agro.uz](http://www.agro.uz), O'zR- Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti
- 34.4. [www.academy.uz](http://www.academy.uz). O'z.R Fanlar akademiyasi sayti
- 34.5. [www.ftk.cc.uz](http://www.ftk.cc.uz) –O'z.R Vazirlar mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalari rivojlanishini muvofiqlantirish qo'mitasi sayti
- 34.6. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz) – O'z.R Iqtisodiyot vazirligi sayti.